

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**MAMATALIYEV JAMOL XAMID O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLAR JAMI  
DAROMADLARINI DEKLARATSIYALASHNI JORIY ETISH ASOSLARI**

**5340600 – “Moliya” ta‘lim yo‘nalishi  
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: o‘q. To‘lakov U.**

**Termiz – 2013**

## MUNDARIJA

	Betlar
<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLAR JAMI DAROMADLARINI DEKLARATSIYALASHNI JORIY ETISH ASOSLARI.....</b>	<b>7</b>
<b>1.1. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati, mazmuni va ob'ektiv zarurligi.....</b>	<b>7</b>
<b>1.2. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash orqali soliqqa tortishning o`ziga xos-xususiyatlari.....</b>	<b>14</b>
<b>II BOB. JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI DEKLARATSIYALASH VA DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>21</b>
<b>2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblash tartibi.....</b>	<b>21</b>
<b>2.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi orqali soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili.....</b>	<b>37</b>
<b>2.3. Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi orqali soliqqa tortishni takomillashtirish.....</b>	<b>74</b>
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>82</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>86</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy islohotlarga mos ravishda soliq tizimida chuqur o'ylangan chora tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ushbu masala xususida alohida to'xtalib o'tgan edilar: «Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012-yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi. Umuman olganda, 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.»<sup>1</sup>.

Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiy tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo'lsa daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo'lgan qiziqishlar bir muncha so'nadi, aksincha, soliq yuki kam bo'lsa aks holat yuz beradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning daromadlarini to'liq hisobini yuritish va ijtimoiy ahamiyatga ega soliq chegirmalarini qo'llashda daromadlarni deklaratsiyalash usuli yuqori samara beradi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va daromad topishga erkinlik yaratish bilan birgalikda ushbu daromadlarning qonuniyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda deklaratsiyalash tizimi orqali fuqarolar daromadlarining hisobga olinishi va adolatli soliqqa tortilishi ta'minlanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

solig'i stavkalarini pasaytirish va hisobga olish, daromadlarning qonuniyligini ta'minlash va to'liq to'langanligini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib, ushbu daromadlarni deklaratsiyalash tizimini joriy etish va uni to'liq kompyuterlashtirishni taqozo etadi. Respublikamizda jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha muammolarning mavjudligi, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Soliqlar va soliqqa tortish sohasidagi nazariy va amaliy muammolar xorijiy iqtisodchi-olimlar A.Brmazgalin, M.Kulisher, A.Laffer, I.Mayburov, L.Pavlova, U.Petti, V.Pushkaryova, D.Rikardo, A.Smit, A.Sokolov, N.Turgenev, D.Chernik, T.Yutkinlarning ilmiy asarlarida yoritilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholi pul daromadlarini ko'paytirish muammolarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Aholi daromadlari va uni oshirishning nazariy jihatlarini mamlakatimiz olimlaridan A.Vahobov, R.Hasanov, A.O'lmasovlarning ilmiy ishlarida kengroq yoritildi<sup>2</sup>. Respublikamizda soliq tizimining rivojlanishini fundamental va amaliy jihatlarini tadqiq etishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan olimlardan M.Almardonov, E.Gadoev, A.Jo'raev, T.Malikov, O.Olimjonov, U.Radjabov, B.Toshmurodova, Sh.Toshmatov, N.Haydarov, Q.Yahyoevlar nomini alohida ta'kidlab o'tish lozim<sup>3</sup>.

**Ilmiy ishning maqsad va vazifalari.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>2</sup> O'lmasov A. Oila iqqisodi. -T.: «Mehnat», 1998. -48 b.; Vahobov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. -T.: «Sharq», 2003 - 285 b.; Xasanov R. Bozor daromadlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi. -T.: Akademiya, 2004 -187 b.

<sup>3</sup> Almardonov M. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga soliq tizimining ta'siri. Monografiya. - T.: TMI, 2003. - 233 b.; Gadoev E. va boshq. Soliqqa oid xatolar. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1996. - 128 b.; Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 243 b.; Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. - T.: Akademiya, 2002. - 204 b.; Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. - T.: Akademiya, 1999. - 254 b.; Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. - T.: «Yangi asr avlodi», 2002.- 128 b.; Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda solliqlar roli. Monografiya. - Toshkent, Fan va texnologiya.- 2008.- 204 b.; Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan va texnologiyalar, 2003. - 247 b.; Haydarov N. Moliya. I-qism. T.: Akademiya, 2001. - 1856.

**Tadqiqot vazifalari.** Tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etish belgilandi:

- jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning kontseptual jihatlarini tadqiq etish;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budget daromadlari shakllanishidagi salmog'i tendentsiyalari va uning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish;

- jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish yuzasidan rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va mamlakatimizda ijodiy qo'llash yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish;

- jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishning afzalliklari va xususiyatlarini tadqiq etish;

- jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalashda milliy mentalitetning o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

- jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Ishning ob'ekti va predmeti.** Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish jarayoni tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Tadqiqot predmeti jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish jarayonida budget bilan soliq to'lovchilar o'rtasida shakllangan moliyaviy munosabatlar majmuasidan iborat.

**Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan kelgusida jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni yanada takomillashtirishga bag'ishlangan mustaqil, maxsus chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanishdan iborat. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bitiruv malakaviy ishi yozish jarayonida olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar jismoniy shaxslar daromadini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirishga bag'ishlangan

maqsadli davlat dasturlari, chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilandi. Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Soliq tarixi va nazariyasi», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Davlat budjeti» fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkin.

**Ishning tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 4- jadval, shartli tarzda misol qilib olingan jismoniy shaxsga tegishli deklaratsiya shakllari, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning birinchi bobida mamlakatimizda jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalashni joriy etish asoslari o'rganilgan. Ikkinchi bobda esa jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash va daromadlarni soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xulosa va takliflarda jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tizimida soliq hisoblashning takomillashtirish masalalariga to'xtalib, tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari ishlab chiqildi.

## **I BOB. MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLAR JAMI DAROMADLARINI DEKLARATSIYALASHNI JORIY ETISH ASOSLARI**

### **1.1. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati, mazmuni va ob'ektiv zarurligi**

Soliqlarning ob'ektiv zarurligi - davlatning bajaradigan qator funktsiyalarning mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Davlatning bajaradigan funktsiyalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodi rivojlana borishi bilan ba'zi funktsiyalar yo'qola borsa, ba'zilari paydo bo'ladi. Ma'lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga.

Biz jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarga izoh berishdan oldin jismoniy shaxs degan so'zga to'xtalsak. Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.<sup>4</sup>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko'ra soliqlar va boshqa yig'implarni o'z vaqtida, to'la xajmda to'lash fuqarolarning asosiy majburiyatlaridan ekanligi qayd etilgan. Har bir fuqaro o'z daromadlaridan qonunda belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lab borishlari kerakligi amaldagi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining boshqa me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining mohiyati, soliq munosabatlaridagi ahamiyati, soliq tizimida va davlat budjetining daromadlaridagi salmog'ini nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda tahlil etish va o'rganish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Davlat budjeti daromadlarining 80 foizidan ko'prog'ini yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar tashkil etadi. Jismoniy shaxslar soliq va yig'implari esa qariyb budjet daromadining 20 foizga yaqinini tashkil etadi.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 2010 y.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi, soliqlar va yig'imlar asosan naqd pul to'lash yo'li bilan budjetga o'tkaziladi.

Shunday ekan, bu yerda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri pul munosabati mavjud.

Shuning uchun jismoniy shaxslar soliqlarini undiruvchi o'ta madaniyatli, shirin so'z bo'lishi bilan birga jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash, undirish tartib-qoidalarini, soliq qonunchiligini chuqur bilishi kerak. Shu shartlar bajarilgan taqdirda budjetga jismoniy shaxslardan me'yordagi daromadlarning to'liq tushish imkoniyati yaratiladi. Soliqchi inspektorning qo'polligi, soliq qonunchiligini tushuntira olmasligi budjetga mo'ljallangan summadagi soliqlarning kelib tushmasligiga olib kelishi mumkin.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i — davlat budjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1991 yilda budjet tushumlarining 6,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda 13,1 foizni, 2003 yilda 12,2 foizni, 2005 yilda 12,6 foizni tashkil etgan, 2007 yilda 12,2 foizni 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 12,8 foizga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i budjet daromadlari tarkibida ahamiyatli ekanligidan darak beradi. Soliq kodeksiga ko'ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi. Bu soliqning o'zi aksariyat korxonalar va tashkilotlardan olingan jismoniy shaxslarning daromadidan soliq (daromad solig'i) va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadga soliqdan iborat. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar ichida yer solig'i va mol-mulk soliqlari ham muhim rol o'ynaydi. Jismoniy shaxslar tadbirkorlikning ro'yxatdan o'tish yig'imi, davlat boji to'lovlari hamda bir

qancha boshqa mayda soliqlar va yig'implarni to'laydilar. Ular salmog'i kamligidan ba'zilar alohida hisobga olinmaydi.

Jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash asosan 2 yo'l bilan olib boriladi:

- daromad to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan hisoblanadi;

- soliq xizmati idoralari tomonidan hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga xo'jalik mehnat shartnomasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalari bo'yicha ish haqi, mukofot va boshqa qator daromadlar to'lovchi korxonalar, tashkilot, muassasa soliqlarni to'liq, to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida budjetga o'tkazib berish javobgarligini o'z zimmasiga oladilar. Fuqarolarning olgan daromadlari to'g'risida soliq idoralari, fuqaroga bildirish va ma'lumotnoma yozib berish vazifasi ham yuridik shaxslarga yuklatilgan.

Jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqarida qo'shimcha daromad olganda va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda olingan daromadlar va qilingan xarajatlar ko'rsatilgan soliq deklaratsiyalarini soliq idoralari taqdim etadilar.

Shu hujjatlar va o'zlaridagi bor ma'lumotlar, tekshiruv dalolatnomalari asosida soliq idoralari jismoniy shaxslar uchun soliq hisobini tuzib, ularga soliq summasi ko'rsatilgan xabarnomani yuboradilar. Bulardan tashqari yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar qayd qilingan daromad solig'i to'laydilar.

Yer solig'i, mol-mulk soliqlarini ham soliq idoralari har yili hisoblab chiqib, jismoniy shaxslarga xabarnoma orqali yetkazadilar. Xabarnoma olgan jismoniy shaxslar unda ko'rsatilgan muddatda barcha soliq va yig'implarni o'z vaqtida to'lashga majburdirlar. Shu yerda fuqarolardan olinadigan biror-bir soliq hisoblanmay qolsa soliq idoralari javob beradi.

Soliqlar va yig'implar o'z vaqtida to'lanmaganda «boqimanda» deb ataladi. Ana shu boqimanda summasiga har bir to'lanmagan kun uchun 0,05 foiz penya soliq summasiga qo'shib, qat'iy tarzda budjetga to'lanadi. Moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadi bo'lgan har qanday jismoniy shaxs daromadiga qarab soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadi. Bu yerda jismoniy shaxslar tushunchasiga

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet mamlakatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Soliqqa tortiladigan daromad tushunchasiga jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligi bo'yicha ko'rsatilgan chegirmalarni chiqarib tashlagandan so'ng qolgan qoldiq hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish qiyin. Chunki bu soliq har bir soliq to'lovchi sub'ektining hayotida muhim rol o'ynaydi. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar milliy daromadni taqsimlashda davlatning, shu jumladan mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismini o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Milliy daromadning majburiy ravishda safarbar qilingan bu qismi davlat moliya resurslarining bir qismiga, uning hayotiy faoliyatining asosiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish usullari jiddiy ravishda o'zgarmoqda. Ma'muriy ta'sir ko'rsatish shakllaridan bilvosita iqtisodiy ta'sir ko'rsatish shakllariga o'tish muhim bo'lib qolmoqda. Davlatning jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tartibga solib turadigan eng kuchli vositalardan biri soliq tizimi bo'lib, u bozor iqtisodiyotining qulay rivojlanish talablariga javob beradigan tarzda qurilishi ta'minlangan. Bu esa, soliqlarni davlatning mavjud bo'lib turishi uchun muhim vazifalarni bajaruvchi zarur vosita bo'lishi bilan bir qatorda, ular ham xo'jalik sub'ektlarini, ham aholining manfaatlariga mos kelmoqda.

Respublikamizda yangi soliq tizimini shakllantirishda xorijiy tajribalardan, ayniqsa, Yevropa hamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar va AQSh tajribasidan keng foydalanilmoqda. Soliq qonunchiligini muayyan iqtisodiy sharoitlarga eng ko'p darajada yaqinlashtirishga, haddan tashqari murakkablik va chalkashlikdan holi bo'lishga imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa zarurat tug'ilganda qonunchilikni umuman qarab chiqish emas, balki faqat davr talabiga mos ravishda takomillashtirish istiqbolini ochib bermoqda.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, chet ellik fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida»gi qonuni bilan joriy qilindi. Keyinchalik unga ayrim tuzatishlar kiritildi. Masalan, ilk o'zgarishlar 1991 yil 20 noyabrdagi qonun bilan, keyin 1992 yil 14 yanvardagi qonun, 1992 yil 2 iyuldagi qonun, 1992 yil 9 dekabrda qonun, 1993 yil 28 dekabrda qonun, 1994 yil 23 sentyabrdagi qonun bilan kiritildi. 1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan va 1998 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi joriy etilishi bilan O'zbekiston Respublikasining yuqorida sanab o'tilgan qonun hujjatlari to'liq yoki qisman o'z kuchini yo'qotdi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida keltirilgan soliqlar tizimi aslida 1997 yilda qo'llanilgan soliqlar va asosan ularning amal qilish tartibi saqlanib qolindi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, aholining daromad solig'iga tortishning yangi tizimini qat'iyon hayotga joriy etish zarur edi. Chunki u davlat daromadini shakllantirish nuqtai nazaridan avvalgi soliq tizimiga nisbatan ijtimoiy jihatdan ancha adolatli va yanada samarali bo'lishi kerak edi. Ana shularni hisobga olgan holda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 2007 yil 25 dekabrda tasdiqlandi va 2008 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi. Soliq kodeksining VI bo'limi, 29-34-boblari, 167-196-moddalarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirish tartibini o'zida mustahkamladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan olinadigan daromad solig'i borasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilingunga qadar o'n uch marotaba katta-kichik o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritildi. Mana shunday katta-kichik o'zgarishlarga chek qo'yish maqsadida yangi Soliq kodeksida aniq qilib soliq to'lovchi sub'ektlarning majburiyatlari va huquqlari ishlab chiqildi.

Ushbu yangi Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bilan huquqlari o'rtasidagi bog'liqlik soliq to'lovchining majburiyatlari soliq inspeksiya larning huquqlarida, shu bilan bir qatorda, soliq inspeksiya larning majburiyatlari esa soliq to'lovchi sub'ektlarining huquqlarida o'z aksini topdi.

Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni olish to'g'risidagi zamonaviy qonunlarida umumiy bir ijtimoiy belgini ajratib ko'rsatish mumkin. Jismoniy shaxslar avvalgi qonunga ko'ra, ya'ni O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, chet ellik fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida»gi qonunni joriy etilishiga qadar, daromad manbalariga ko'ra bo'linar edi, ya'ni soliq to'lovchilarning olti toifasi mavjud edi. Birinchi toifaga mehnat vazifalarini bajarishdan daromad oladigan va ularga tenglashtirilgan shaxslar kiritilgan. Ikkinchi toifaga – asosiy ish joyidan tashqari joyda bir marotabalik ishlarni bajarishdan daromad va boshqa to'lovlar oladigan shaxslar, uchinchi toifaga – mualliflik qalam haqi oladigan shaxslar, to'rtinchi toifaga - yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanib daromad oladigan shaxslar kiritilgan edi. Dehqon xo'jaligi yuritishdan daromad oladigan shaxslar soliq to'lovchilarning beshinchi toifasini tashkil etgan. Boshqa daromad oladigan jismoniy shaxslar oltinchi toifaga kiritilgan.

Guruhlanishning eng muhim farqi – soliq stavkalarining darajasi edi. Eng imtiyozli soliq stavkalari yollanib ishlovchilar uchun va eng og'ir stavkalar – yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan edi. Hozirgi qonunlarda sub'ektlarni chegaralash daromad manbalari bo'yicha emas, balki doimiy yashash belgisi (rezidentlar) va vaqtincha yashash belgisi (nerezidentlar) bo'yicha amalga oshirilib borilishi ko'zda tutilgan.

Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritgunga qadar bo'lgan davrda amal qilgan qoidaga ko'ra, daromad solig'i har oyda, qayta hisoblashsiz hisoblanar edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida va ayniqsa, daromadlar hajmlari davrlar bo'yicha katta farq bilan taqsimlanadigan mavsumiy tUSDagi ishlarni bajarishda, bunday yondashuv maqbul bo'lmay qoldi. Sababi, daromadning o'rtacha darajasi uncha baland bo'lmasa-da, aholi ayrim davrlarda ko'proq soliq solinadigan katta daromad olishlari mumkin. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida yil boshidan boshlab o'sib boruvchi yakun bo'yicha daromad solig'i hisob-kitobi qabul qilingan. Hisob-kitob qilishning bunday usuli soliqlarni har oyda alohida hisoblab

chiqishdan murakkabroq bo'lsa ham, to'lanadigan soliq summasini fuqarolarning yillik o'rtacha daromadga qarab tekislash imkonini beradi hamda soliqqa tortishda gorizontal adolatni ta'minlaydi.

Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina soliq to'lovchilar daromad solig'ining o'sib boruvchi yakuniga ko'ra ushlanishini hali ham yaxshi anglab yetmaganlar. Bunday qilish bilan ular yana qo'shimcha haq to'layapmiz deb o'ylashadi. Lekin bu tushuncha xato tushuncha bo'lib, bu ularning zarari uchun emas, balki foydasini ko'zlab qilinadi. Bu fikrni tahlil qilib, shuni aytish kerakki, buxgalter o'sib boruvchi yakunga ko'ra hisoblash usulini qo'llar ekan, hisob-kitobda to'lovchining bundan oldingi davr uchun jami umumiy daromadini hisobga oladi. Bunda u daromad solig'ini hisoblar ekan, to'lovchi uchun ancha qimmatga tushadigan bir oylik shkaladan emas, balki butun hisob-kitob qilinadigan davr shkalasidan foydalanadi (bir kalendar yili uchun). Bu bilan olingan jami daromad ayni shu davr doirasida hisoblab chiqiladi. Natijada, daromadning qaysi oyda eng salmoqli bo'lganidan qat'iy nazar, daromad solig'i eng yirik summadan emas, balki o'rtacha darajaga keltirilgan ish haqi minus barcha ilgari to'langan soliqlar tartibida hisoblanadi.

Yana ikkinchi afzallik ham mavjud bo'lib, u shundan iboratki, bunday usul qo'llanilganida aslida har bir oy uchun qayta hisob-kitob amalga oshiriladi. Bu ham o'ziga xos bir ehtiyotkorlik, chunki shunday qilinganida ko'pincha hisob-kitoblarda ilgari yo'l qo'yilgan xatolar ham aniqlanadi. Mabodo to'lovchidan ortiqcha so'mma undirilgan bo'lsa (shunaqasi ham amaliyotda uchraydi), unda yil oxirida ilgari ushlab qolingani soliq so'mmasi, agarda shaxsning boshqa soliqlardan qarzi bo'lmagan taqdirda qaytariladi. Agar buxgalteriya qaysidir paytda bir ishchi yoki xizmatchini oylik maoshidan kamroq miqdorda ushlab qolgan bo'lsa, unda qarzdor bo'lgan o'z qarzini o'zishiga to'g'ri keladi. Bu adolatli holdir, chunki na davlat, na soliq to'lovchilar rejadan tashqari xarajatlarga duch kelmasligi ham nazarda tutilgan.

Bunday tartib amal qilgan taqdirda yilning dekabr oyidagi shkalasi odatda yillik shkalaga muvofiq keladi. Shuning uchun ham yilning oxirida mehnat

faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladigan daromadlar haqidagi deklaratsiyalarga muvofiq soliqqa tortish ayni shu shkalaga binoan amalga oshiriladi. Umuman, daromadlarni deklaratsiyalash – ushbu ishning alohida bo'limi bo'lib, faqat shuni qayd qilib o'tmoqchimizki, daromadlarni deklaratsiyalash o'sib boruvchi yakunga ko'ra soliq solish shkalasining afzalligini tasdiqlaydi. Bu narsa, mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarni bir necha joydan daromad olish hollariga tegishlidir. Tabiiyki, bunday joylarning har birida ham ish haqi to'lanish jarayonida tegishli soliq stavkalari ushlab qolinadi. Shunga qaramasdan, baribir, barcha jismoniy shaxslar o'z daromadini ko'rsatuvchi deklaratsiyani topshirishda yil davomida olingan hamma daromadni ko'rsatishi kerak bo'ladi. Bunday daromadlar, qayd qilib o'tilganidek, jamlab chiqiladi. Shundan so'ng esa xodimdan to'langan soliq chegirib tashlab, qo'shimcha daromad solig'i budjetga o'tkaziladi.

## **1.2. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash orqali soliqqa tortishning o'ziga xos-xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 7 dekabrda 321-II-sonli qaroriga muvofiq hamda jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini respublikada bosqichma-bosqich joriy etishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrda "Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3127-sonli farmoniga asosan 2002-2005 yillardagi davrda O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalashning xalqaro me'yorlarga mos keladigan tizimini bosqichma-bosqich joriy etish yuzasidan tayyorgarlik chora-tadbirlari majmuini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni ta'minlaydigan 2002-2005 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlarning aniq

dasturi va jadvalini 2003 yil 1 yanvaridan boshlab olingan daromadlar bo'yicha ishlab chiqdilar.

Farmonga ko'ra quyidagilar belgilandi:

– jami daromadni deklaratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish chog'ida fuqarolarning konstitutsiyaviy va mulkiy huquqlari buzilishiga, ularning daromadlari va mol-mulki miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishiga, fuqarolarning shaxsiy turmushiga aralashishga hamda boshqa suiiste'molchiliklar va huquqbuzarliklarga qat'iyanoq yo'l qo'yilmaydi;

– jismoniy shaxslarning daromadlari va mol-mulki bilan bog'liq axborot hamda hujjatlardan foydalanish tartibini buzishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimi joriy etilgunga qadar fuqarolarning daromadlarini ixtiyoriy ravishda deklaratsiyalash tizimini puxtalashtirish bo'yicha tanlab olish yo'li bilan tajriba tariqasida ish olib borish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi xorijiy mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash tajribasini chuqur o'rganib hamda ularni inobatga olgan holda deklarantlar tomonidan o'z daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ixtiyoriy ravishda taqdim etilishini rag'batlantirish mexanizmini, shuningdek ularning javobgarlik choralari, jumladan zarur ma'lumotlarni taqdim etmaganlik va daromadlarni atayin yashirganligi uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan jazolarni qo'llash choralari ishlab chiqdilar.

**Deklaratsiya** - soliq idoralariga soliq to'lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o'z ichida olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog'liq xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to'lovchining hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtda davlat budjetiga to'lashga majbur etadigan hujjat hisoblanadi. Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi:

– mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

– fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

– asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

– ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;

– O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

– soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizadan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo'yicha to'langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingan summalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

– soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;

– soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

– soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni

ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o‘zidan olish mo‘ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);

- daromadlarning manbalari;
- daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar, majburiy to‘lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;
- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar;
- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- haqiqatda to‘langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog‘liq boshqa ma‘lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalari soliq to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o‘zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi ushbu Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi soliqning yetishmayotgan

summasini hamda unga tegishli penani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar yuqorida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo'lmagan daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi yuqorida ko'rsatilgan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va soliq to'lovchiga to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliq summasi to'g'risida bildirishnoma topshirishga haqlidir. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

– yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda - ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

– jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda - bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

**II BOB. JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI  
DEKLARATSIYALASH VA DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblash tartibi va  
tahlili**

Jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda daromad solig`ini hisoblash tartibini bilish muhimdir. Biz o`z navbatida bir necha vaziyatlar orqali daromad solig`ini hisoblash tartibini o`rganib chiqamiz va shu asnoda deklaratsiya bo`yicha soliq summasini mustaqil ravishda hisoblashni amalga oshiramiz. 2012 yil uchun deklaratsiyada jismoniy shaxs 2011 yilda barcha manbalardan olgan jami daromadlar hamda undan ushlab qolingan JShDS summaları aks ettiriladi. Shu bois daromad solig`ini hisoblash bo`yicha keltiriladigan vaziyatlarda jismoniy shaxslarning 2011 yilda olingan jami daromadlari hisob-kitobi keltirilgan.

Yanvar-dekabr oylari uchun eng kam ish haqi (EKIH)<sup>5</sup> miqdori 639 865 so`mni (49 735 + 49 735 + 49 735 + 49 735 + 49 735 + 49 735 + 49 735 + 57 200 + 57 200 + 57 200 + 57 200 + 62 920) tashkil etadi.

<i>Soliq solinadigan daromad miqdori</i>	<i>Soliq summasi</i>
5 x 639 865 = 3199 325 so`mgacha	Daromad summasining 10 foizi <sup>6</sup>
3199 326 so`mdan (10 x 639 865) = 6398 650 so`mgacha	319 932,5 so`m + 3199 325 so`mdan ortiq summaning 16 foizi
6398 651 so`m va undan yuqori	831 824,5 so`m + 6398 650 so`mdan ortiq summaning 22 foizi

<sup>5</sup> Prezidentning 2010 yil 15 noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to`g`risida" PF-4253-son Farmoniga binoan 2010 yil 1 dekabrda boshlab eng kam ish haqi miqdori oyiga 49 735 so`mga teng. Prezidentning 2011 yil 7 iyuldagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to`g`risida" PF-4332-son Farmoniga muvofiq 2011 yil 1 avgustdan boshlab EKIH miqdori oyiga 57 200 so`m etib belgilangan. Prezidentning 2011 yil 3 noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to`g`risida" PF-4377-son Farmoniga asosan 2011 yil 1 dekabrda boshlab EKIH miqdori oyiga 62 920 so`m etib belgilandi.

<sup>6</sup> 2011 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining quyidagi stavkalari amal qilmoqda: eng kam stavka - 10%, o`rtacha stavka - 16%, eng yuqori stavka - 22% (Prezidentning 2010 yil 24 dekabrda "O`zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to`g`risida" PQ-1449-son qarorining 8-ilovasi, bundan keyin - PQ-1449-son Qaror).

**1-VAZIYAT. Bir oyda olgan daromadlari EKIHNing 5 baravaridan kam bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobi.**

Jismoniy shaxsning yanvar-iyul oylaridagi oylik mehnat haqi miqdori 200 000 so'mni, avgust-noyabr oylarida - 230 000 so'mni, dekabr oyida - 260 000 so'mni tashkil qildi. Uning yanvar-dekabr oylaridagi 2 580 000 so'mlik (200 000 + 200 000 + 200 000 + 200 000 + 200 000 + 200 000 + 230 000 + 230 000 + 230 000 + 260 000) daromadi 3 199 325 so'mdan oshmaydi va unga 10%lik stavka bo'yicha soliq solinadi.

Bir yil uchun soliq summasi:

$$2\,580\,000 \times 10\% = 258\,000 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 232 000 so'm soliq ushlab qolinganligi bois, dekabr oyida uning summasi 26 000 so'mni (258 000 - 232 000) tashkil etadi.

Bir yil uchun hisoblab yozilgan ish haqining 1 foizi miqdoridagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga (ShJBPHga) majburiy badallar summasi<sup>7</sup>:

$$2\,580\,000 \times 1\% = 25\,800 \text{ so'mga teng.}$$

Fuqarolarning ShJBPHga majburiy badallari hisoblab yozilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan chegiriladi<sup>8</sup>. Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 23 200 so'm majburiy badallar o'tkazilgan, tegishincha, dekabr oyi uchun badallar 2 600 so'mga (25 800 - 23 200) teng.

Dekabr oyi uchun budgetga:

$$26\,000 - 2\,600 = 23\,400 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

Majburiy sug'urta badallari xodimning dekabr oyidagi ish haqining butun summasi - 260 000 so'mdan undiriladi:

---

<sup>7</sup> PQ-1449-son Qarorga muvofiq (8-ilova) 2011 yilda fuqarolarning ShJBPHga oylik majburiy badallari stavkasi xodimga hisoblangan ish haqi (daromadi) soliq solinadigan summasining 1%i miqdorida belgilangan (Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 595-son qarorining 2-bandi).

<sup>8</sup> Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizamning (MV, DSQ, MB boshqaruvining AV tomonidan 2005 yil 6 oktyabrda 1515-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) 3-bandi.

$$260\,000 \times 4,5\% = 11\,700 \text{ so'm}^9.$$

Soliqlar va majburiy ajratmalar ushlanganidan keyin jismoniy shaxsga to'lanadigan daromad:

$$260\,000 - 26\,000 - 11\,700 = 222\,300 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

**2-VAZIYAT. Bir oyda olgan daromadlari EKIHNing 10 baravaridan kam bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobi.**

Jismoniy shaxsning yanvar-iyul oylaridagi oylik mehnat haqi miqdori 300 000 so'mni, avgust-noyabr oylarida - 345 000 so'mni, dekabr oyida - 380 000 so'mni tashkil qildi. Yil boshidan jami daromad 3 860 000 so'mga ( $300\,000 + 300\,000 + 300\,000 + 300\,000 + 300\,000 + 300\,000 + 345\,000 + 345\,000 + 345\,000 + 345\,000 + 380\,000$ ) teng.

16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan jismoniy shaxsning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadi summasini hisoblab chiqarib, soliqni hisoblab yozish kerak:

$$(3\,860\,000 - 3\,199\,325) \times 16\% = 660\,675 \times 16\% = 105\,708 \text{ so'm.}$$

Soliq stavkalari jadvalidan ko'rinib turganidek, bir oyda EKIHNing 5 baravari miqdorigacha daromaddan olinadigan soliq miqdori 319 932,5 so'mni tashkil etadi. Jismoniy shaxsning yanvar-dekabr oylaridagi daromadlaridan ushlanadigan soliq summasi:

$$319\,932,5 + 105\,708 = 425\,640,5 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 383 716,5 so'm soliq ushlangani bois, dekabr oyida uning summasi 41 924 so'mni ( $425\,640,5 - 383\,716,5$ ) tashkil etadi.

Bir yil uchun ShJBPHga majburiy ajratmalar summasi:

$$3\,860\,000 \times 1\% = 38\,600 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 34 800 so'm majburiy badallar o'tkazilgan, tegishincha, dekabr oyi uchun ajratma miqdori 3 800 so'mni ( $38\,600 - 34\,800$ ) tashkil etadi. Dekabr oyi uchun budjetga:

$$41\,924 - 3\,800 = 38\,124 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

---

<sup>9</sup> 2011 yil uchun fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ularning ish haqidan majburiy sug'urta badallari stavkasi xodimga hisoblab yozilgan, badallar undiriladigan ish haqi (daromad) summasining 4,5 foizi miqdorida belgilandi (PQ-1449-son Qarorning 3-bandi).

**3-VAZIYAT. Bir oyda olgan daromadlari EKIHNing 10 baravaridan ko'p bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobi.**

Jismoniy shaxsning yanvar-iyul oylaridagi oylik mehnat haqi miqdori 500 000 so'mni, avgust-noyabr oylarida - 575 000 so'mni, dekabr oyida - 660 000 so'mni tashkil qildi. Uning bir yillik daromadi 6 460 000 so'mga teng (500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 575 000 + 575 000 + 575 000 + 575 000 + 660 000).

22%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, unga soliq hisoblab yozamiz:

$$(6\,460\,000 - 6\,398\,650) \times 22\% = 61\,350 \times 22\% = 13\,497 \text{ so'm.}$$

Soliq stavkalari jadvalidan ko'rinib turganidek, bir oyda EKIHNing 5 baravari va 10 baravari miqdorigacha daromaddan olinadigan soliq miqdori 831 824,5 so'mni tashkil etadi. Jismoniy shaxsning bir yillik daromadlaridan ushlanadigan soliq summasi:

$$831\,824,5 + 13\,497 = 845\,321,5 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 756 749,5 so'm soliq ushlanganligi bois, dekabr oyida uning summasi 88 572 so'mni (845 321,5 - 756 749,5) tashkil etadi.

Bir yil uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$$6\,460\,000 \times 1\% = 64\,600 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 58 000 so'm yo'naltirilgan, tegishincha, dekabr oyida ajratmalar 6 600 so'mni (64 600 - 58 000) tashkil etadi.

Dekabr oyi uchun budjetga:

$$88\,572 - 6\,600 = 81\,972 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

**4-VAZIYAT. Imtiyozlar qo'llanilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobi.**

Xodim Soliq kodeksi (*bundan keyin - SK*) 180-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq imtiyozga ega (*masalan, xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar*). Uning

oylik mehnat haqi miqdori yanvar-iyul oylarida 500 000 so‘mni, avgust-noyabr oylarida - 575 000 so‘mni, dekabr oyida - 660 000 so‘mni tashkil etdi. 12 oylik daromadi 6 460 000 so‘mga teng (500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 500 000 + 575 000 + 575 000 + 575 000 + 575 000 + 660 000).

SK 180-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning jami daromadidan har oyda EKIHNing 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi. Bir yil uchun soliq solinmaydigan daromad:

$$639\,865 \times 4 = 2\,559\,460 \text{ so‘mni tashkil etadi.}$$

Soliq solinadigan daromad esa:

$$6\,460\,000 - 2\,559\,460 = 3\,900\,540 \text{ so‘mga teng bo‘ladi.}$$

Endi 16%lik stavka bo‘yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, soliqni hisoblab yozamiz:

$$(3\,900\,540 - 3\,199\,325) \times 16\% = 701\,215 \times 16\% = 112\,194,4 \text{ so‘m.}$$

EKIHNing 5 baravarigacha bo‘lgan va undan oshadigan daromadlardan olingan soliq summalarini qo‘shish yo‘li bilan jismoniy shaxsning bir yillik daromadlaridan ushlanadigan summaga ega bo‘lamiz:

$$319\,932,5 + 112\,194,4 = 432\,126,9 \text{ so‘m.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 385 671,7 so‘m soliq ushlangani bois, dekabr oyidagi daromaddan soliq 46 455,2 so‘mni (432 126,9 - 385 671,7) tashkil etadi.

Bir yil uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$$3\,900\,540 \times 1\% = 39\,005,4 \text{ so‘mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 34 922,2 so‘m yo‘naltirilgan, tegishincha, dekabr oyi uchun badallar 4 083,2 so‘mni (39 005,40 - 34 922,2) tashkil etadi.

Dekabr oyi uchun budjetga:

$$46\,455,2 - 4\,083,2 = 42\,372 \text{ so‘m soliq o‘tkaziladi.}$$

**5-VAZIYAT. Moddiy yordam olinganda imtiyozlar qo‘llanilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobi.**

Xodimga yanvar oyida 400 000 so‘m moddiy yordam berildi. Uning yanvar-iyul oylaridagi oylik mehnat haqi miqdori 350 000 so‘mni, avgust-noyabr oylarida - 400 000 so‘mni, dekabr oyida - 460 000 so‘mni tashkil etdi. Yil boshidan jami

daromad 4 910 000 so‘mga (350 000 + 400 000 + 350 000 + 350 000 + 350 000 + 350 000 + 350 000 + 350 000 + 400 000 + 400 000 + 400 000 + 400 000 + 460 000) teng.

SK 179-moddasining 1-bandiga ko‘ra bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi. Oldin moddiy yordam berilgan sanada amal qilgan EKIHNing qo‘llanilgan ( $49\,735 \times 12 = 596\,820$  so‘m). Dekabr oyida imtiyoz miqdori belgilangan so‘nggi EKIHNing:  $62\,920 \times 12 = 755\,040$  so‘mdan kelib chiqib aniqlanadi<sup>10</sup>. 400 000 so‘m moddiy yordamning imtiyozli miqdoridan oshmaganligi sababli, moddiy yordamning butun summasini daromaddan chiqarib tashlaymiz. Binobarin, soliq solinadigan daromad:

$$4\,910\,000 - 400\,000 = 4\,510\,000 \text{ so‘mga teng.}$$

*Bundan keyingi hisob-kitob 2-vaziyatda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.*

#### **6-VAZIYAT. Qimmatbaho sovg‘a olinganda imtiyozlar qo‘llanilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobi.**

Xodimga yanvar oyida qiymati 300 000 so‘m bo‘lgan maishiy texnika buyumi sovg‘a qilingan. Uning oylik mehnat haqi miqdori yanvar-iyul oylarida 400 000 so‘mni, avgust-noyabr oylarida - 460 000 so‘mni, dekabr oyida - 530 000 so‘mni tashkil etdi. Yil boshidan jami daromad 5 470 000 so‘mga teng ( $400\,000 + 300\,000 + 400\,000 + 400\,000 + 400\,000 + 400\,000 + 400\,000 + 460\,000 + 460\,000 + 460\,000 + 460\,000 + 530\,000$ ).

SK 179-moddasining 14-bandiga ko‘ra yuridik shaxslardan olingan, soliq davrining oxiridagi holatga ko‘ra belgilangan EKIHNing miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, bir yil mobaynidagi EKIHNing 6 baravari miqdorigacha bo‘lgan summadagi sovg‘alarning qiymatiga soliq solinmaydi.

---

<sup>10</sup> Berilgan moddiy yordam bo‘yicha soliq imtiyozi miqdori 2011 yil 1 avgustdan boshlab EKIHNing o‘zgarganligi munosabati bilan qayta hisob-kitob qilinmaydi, zero, SKning 186-moddasiga muvofiq, o‘z xodimlariga moddiy yordam ko‘rsatgan va sovg‘alar bergan soliq agentlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini soliq davrining oxirida amalda bo‘lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda qayta hisob-kitob qiladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq davri bo‘lib SKning 183-moddasiga binoan kalendar yil hisoblanadi.

Yanvar-noyabr oylari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarishda sovg'a berilgan sanada amal qilgan EKIHI:

$$49\,735 \times 6 = 298\,410 \text{ qo'llangan.}$$

Dekabr oyida imtiyoz miqdori belgilangan so'nggi EKIHI:

$$62\,920 \times 6 = 377\,520 \text{ so'mdan kelib chiqib aniqlanadi.}$$

Sovg'a qiymati imtiyozli miqdordan oshmaydi va unga soliq solinmaydi.

Soliq solinadigan daromad:

$$5\,470\,000 - 300\,000 = 5\,170\,000 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, soliqni hisoblab yozamiz:

$$(5\,170\,000 - 3\,199\,325) \times 16\% = 1\,970\,675 \times 16\% = 315\,308 \text{ so'm.}$$

Yanvar-dekabr oylaridagi daromadlardan ushlanadigan soliq summasi:

$$319\,932,5 + 315\,308 = 635\,240,5 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 569 570,9 so'm soliq ushlangan, dekabr oyi uchun uning summasi 65 669,6 so'mni (635 240,5 - 569 570,9) tashkil etadi.

Yanvar-dekabr oylari uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$$5\,170\,000 \times 1\% = 51\,700 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 46 415,9 so'm yo'naltirilgan, tegishincha, dekabr oyida badallar 5 284,1 so'mni tashkil etadi (51 700 - 46 415,9).

Dekabr oyi uchun budjetga:

$$65\,669,6 - 5\,284,1 = 60\,385,5 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

**7-VAZIYAT. Kompensatsiya to'lovlari oladigan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq hisob-kitobi.**

Xodimning yanvar-iyul oylaridagi oylik mehnat haqi miqdori 400 000 so'mni, avgust-noyabr oylarida - 460 000 so'mni, dekabr oyida - 530 000 so'mni tashkil qildi. Unga shuningdek dvigatel hajmi 1,5 litr va quvvati 75 ot kuchiga teng bo'lgan «Neksiya» rusumli shaxsiy avtomobilidan xizmat safarlarida foydalanganlik uchun: yanvar-iyul oylarida - 250 000 so'mdan, avgust-noyabr oylarida - 280 000 so'mdan, dekabr oyida - 320 so'm kompensatsiya to'langan.

SK 171-moddasi ikkinchi qismining 8-bandiga muvofiq, xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan kompensatsiya to'lovlari tarzidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi. Vazirlar Mahkamasining «Byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarda xizmat yengil avtotransportidan foydalanishni tartibga solish to'g'risida» qarori (1999 yil 2 apreldagi 154-son) 3-ilovasining 4-bandiga binoan 70 dan 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan avtomobillar uchun oylik kompensatsiyaning chegaralangan miqdori EKIHning 3,5 baravariga teng.

Yanvar-iyul oylari uchun qonunchilik bilan belgilangan kompensatsiya summasi bir oyda 174 072,5 so'mga ( $49\,735 \times 3,5$ ), avgust-noyabr oylarida - 200 200 so'mga ( $57\,200 \times 3,5$ ), dekabr oyida - 220 220 so'mga ( $62\,920 \times 3,5$ ) teng. Yanvar-dekabr oylari uchun kompensatsiya to'lovlari 3 190 000 so'mga ( $250\,000 \text{ so'm} \times 7 \text{ oy} + 280\,000 \times 4 \text{ oy} + 320\,000 \text{ so'm}$ ) teng. Oylik normadan ortiqcha kompensatsiya to'lovlari summasi yanvar-iyul oylarida 75 927,5 so'mga ( $250\,000 - 174\,072,5$ ), avgust-noyabr oylarida - 79 800 so'mga ( $280\,000 - 200\,200$ ), dekabr oyida - 99 780 so'mga ( $320\,000 - 220\,220$ ) teng.

Xodimning yanvar-dekabr oylari uchun soliq solinadigan jami daromadi:

$400\,000 + 75\,927,5 + 400\,000 + 75\,927,5 + 400\,000 + 75\,927,5 + 400\,000 + 75\,927,5 + 400\,000 + 75\,927,5 + 400\,000 + 75\,927,5 + 460\,000 + 79\,800 + 460\,000 + 79\,800 + 460\,000 + 79\,800 + 460\,000 + 79\,800 + 530\,000 + 99\,780 = 6\,120\,472,5$  so'mni tashkil etadi.

16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, soliqni hisoblab yozamiz:

$(6\,120\,472,5 - 3\,199\,325) \times 16\% = 2\,921\,147,5 \times 16\% = 467\,383,6$  so'm.

Soliq stavkalari jadvaliga binoan bir oyda EKIHning 5 baravari miqdorigacha daromaddan olinadigan soliq summasi 319 932,5 so'mni tashkil qiladi. Jismoniy shaxsning yanvar-dekabr oylaridagi daromadlaridan:

$319\,932,5 + 467\,383,6 = 787\,316,1$  so'm soliq ushlab qolinadi.

Yanvar-noyabr oylarida 705 427,3 so‘m soliq ushlanganligi bois, dekabr oyi uchun uning summasi 81 888,8 so‘mni (787 316,1 - 705 427,3) tashkil etadi.

Yanvar-dekabr oylari uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$6\,120\,472,5 \times 1\% = 61\,204,73$  so‘mni tashkil etadi.

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 54 906,93 so‘m yo‘naltirilgan, tegishincha, dekabr oyida badallar 6 297,8 so‘mni (61 204,73 - 54 906,93) tashkil etadi. Byudjetga esa:

$81\,888,8 - 6\,297,8 = 75\,591$  so‘m soliq o‘tkaziladi.

**8-VAZIYAT. Bir nechta imtiyozlar qo‘llanilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobi (har oyda EKIHNing 4 baravari miqdorida daromad summasini chegirish tarzida imtiyoz huquqiga ega bo‘lgan xodim tomonidan moddiy yordam va qimmatbaho sovg‘a olinganda).**

Xodimga yanvar oyida 500 000 so‘m moddiy yordam va qiymati 350 000 so‘mga teng bo‘lgan sovg‘a berilgan. Uning yanvar-iyul oylaridagi oylik ish haqi miqdori 450 000 so‘mni, avgust-noyabr oylarida - 520 000 so‘mni, dekabr oyida - 600 000 so‘mni tashkil qildi. Xodimning yil boshidan jami daromadi 668 0 000 so‘mga ( $450\,000 + 500\,000 + 350\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 520\,000 + 520\,000 + 520\,000 + 520\,000 + 600\,000$ ) teng.

SK 179-moddasi birinchi qismining 1-bandiga binoan bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi. Yanvar-noyabr oylari uchun hisob-kitob amalga oshirilganda moddiy yordam berilgan sanada amal qilgan EKIHNing qo‘llanilgan ( $49\,735 \times 12 = 596\,820$  so‘m). Dekabr oyida imtiyoz miqdori belgilangan so‘nggi EKIHNing ( $62\,920 \times 12 = 755\,040$  so‘mdan kelib chiqib aniqlanadi. 500 000 so‘m moddiy yordamning imtiyozli miqdoridan oshmaganligi sababli, moddiy yordamning butun summasini soliq solinadigan daromaddan chiqarib tashlaymiz.

SK 179-moddasi birinchi qismining 14-bandiga binoan yuridik shaxslardan hisobot yili mobaynida EKIHNing 6 baravari miqdorigacha olingan sovg‘alarning

qiymatiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi. Yanvar-noyabr oylari uchun soliq hisob-kitobi amalga oshirilganda sovg'a berilgan sanada amal qilgan EKIHI qo'llanilgan ( $49\,735 \times 6 = 298\,410$  so'm). Dekabr oyida imtiyoz miqdori belgilangan so'nggi EKIHI:  $62\,920 \times 6 = 377\,520$  so'mdan kelib chiqib aniqlanadi. Qimmatbaho sovg'a qiymati moddiy yordamning imtiyozli miqdoridan oshmaganligi sababli, unga soliq solinmaydi.

Imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning jami daromadidan har oyda EKIHI miqdorining 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi (*SK 180-moddasining ikkinchi qismi*). Tegishincha, xodimning yanvar-dekabr oylari uchun mehnat haqi tarzidagi soliq solinmaydigan daromadi:

$$639\,865 \times 4 = 2\,559\,460 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Ushbu davr uchun soliq solinadigan daromad esa:

$$(450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 450\,000 + 520\,000 + 520\,000 + 520\,000 + 520\,000 + 600\,000) - 2\,559\,460 = 3\,270\,540 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Bir yillik soliq summasini aniqlash uchun 16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, soliqni hisoblab yozamiz:

$$(3\,270\,540 - 3\,199\,325) \times 16\% = 71\,215 \times 16\% = 11\,394,4 \text{ so'm.}$$

Bir oyda EKIHIning 5 baravari miqdorigacha daromaddan olinadigan soliq summasi 319 932,5 so'mni tashkil etadi. Bir yillik daromaddan:

$$319\,932,5 + 11\,394,4 = 331\,326,9 \text{ so'm soliq ushlanadi.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 302 726,1 so'm soliq ushlanganligi bois, dekabr oyi uchun uning summasi 28 600,8 so'mni ( $331\,326,9 - 302\,726,1$ ) tashkil etadi.

Bir yil uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$$3\,270\,540 \times 1\% = 32\,705,4 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 29 738,1 so'm yo'naltirilgan, tegishincha, dekabr oyi uchun ShJBPHga 2 967,3 so'm ( $32\,705,4 - 29\,738,1$ ) ajratiladi.

Byudjetga:

$$28\,600,8 - 2\,967,3 = 25\,633,5 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

**9-VAZIYAT. Farzandlarining oliy o'quv yurtidagi o'qishi uchun haq to'laydigan xodimning daromadlaridan olinadigan soliq hisob-kitobi.**

Qizi institutda ta'lim olayotgan xodimning oylik mehnat haqi miqdori yanvar-iyul oylarida 500 000 so'mni, avgust-noyabr oylarida - 570 000 so'mni, dekabr oyida - 620 000 so'mni tashkil etdi. Uning arizasiga binoan yanvar oyida korxonada 2010-2011 o'quv yili uchun 1 500 000 so'm miqdorida o'qishning yarmi uchun haq to'ladi. To'langan summa yanvar oyidan boshlab to'liq so'ndirilgunga qadar umumiy ushlanmalar summasi - oylik ish haqining 50 foizidan oshmagan miqdorda jismoniy shaxsning daromadlaridan ushlanadi.

Yanvar-avgust oylarida 2010-2011 o'quv yili uchun o'qish qiymati to'liq so'ndirildi.

Sentyabr oyida xodimning arizasiga binoan korxonada 2011-2012 o'quv yili uchun 1 700 000 so'm miqdorida o'qish haqini to'ladi. Ushlanmalarning umumiy summasi oylik ish haqining 50 foizidan oshmasligi kerakligini hisobga olib, sentyabr oyidan boshlab xodimning sentyabr-noyabr oylaridagi daromadlardan har oyda 220 000 so'mdan, dekabr oyida - 240 000 so'm ushlab qolishga qaror qilindi.

SK 179-moddasining 31-bandiga muvofiq, fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki 26 yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalariga soliq solinmaydi.

Yanvar-dekabr oylaridagi soliq solinadigan daromad 4 000 000 so'mni (310 000 + 310 000 + 310 000 + 310 000 + 310 000 + 310 000 + 310 000 + 400 000 + 350 000 + 350 000 + 350 000 + 380 000) tashkil qiladi.

16%lik stavkada soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, soliq hisoblab yozamiz:

$$(4\,000\,000 - 3\,199\,325) \times 16\% = 800\,675 \times 16\% = 128\,108 \text{ so'm.}$$

Jismoniy shaxsning bir yillik daromad solig'i summasi:

$$319\,932,5 + 128\,108 = 448\,040,5 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 406 116,5 so'm soliq ushlanganligi bois, dekabr oyi uchun uning summasi 41 924 so'mni (448 040,5 - 406 116,5) tashkil etadi.

Yanvar-dekabr oylari uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$4\,000\,000 \times 1\% = 40\,000$  so‘mni tashkil etadi.

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 36 200 so‘m majburiy badallar yo‘naltirilgan, dekabr oyi uchun ajratma miqdori 3 800 so‘mni (40 000 - 36 200) tashkil etadi.

Dekabr oyi uchun budjetga:

$41\,924 - 3\,800 = 38\,124$  so‘m soliq o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari ajratmasi xodimning dekabr oyi uchun butun ish haqi - 620 000 so‘mdan amalga oshiriladi:

$620\,000 \times 4,5\% = 27\,900$  so‘m.

Soliqlar, sug‘urta ajratmalari va ta‘lim olish uchun haq to‘lash hisobiga ushlanmalar chegirilganidan keyin jismoniy shaxsga:

$620\,000 - 240\,000 - 41\,924 - 27\,900 = 310\,176$  so‘m to‘lanadi.

**10-VAZIYAT. Ilgari boshqa korxonada ishlagan xodimning daromadlaridan olinadigan soliq hisob-kitobi.**

May oyida ishga yangi xodim qabul qilindi. May-iyul oylarida unga bir oy uchun 450 000 so‘m, avgust-noyabr oylarida - 520 000 so‘m, dekabr oyida - 570 000 so‘m ish haqi hisoblab yozildi.

Xodim avvalgi ish joyidan ma‘lumotnoma va STIRni buxgalteriyaga oktyabr oyidagina taqdim etdi. SK 186-moddasining oltinchi qismiga muvofiq yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi o‘zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o‘ziga to‘langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalari to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani yangi joydagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ma‘lumotnoma yoxud soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i eng yuqori stavka bo‘yicha ushlab qolinadi. Hujjatlar keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, soliq ilgari asosiy ish joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Ma'lumotnomadagi ma'lumotlarga ko'ra xodimning yanvar-aprel oylari uchun daromadi 1 780 000 so'mni tashkil qildi. Ushbu summadan 225 118 so'm miqdorida soliq ushlab qolingana. Shunday qilib, xodimning yanvar-dekabr oylaridagi jami daromadi 5 780 000 so'mga (1 780 000 + 450 000 + 450 000 + 450 000 + 520 000 + 520 000 + 520 000 + 520 000 + 570 000) teng.

May-sentyabr oylarida ishga yangi qabul qilingan xodimning daromadlaridan soliq eng yuqori stavka bo'yicha - 525 800 so'm miqdorida ushlab qolingana. Oktyabr oyida u daromadlari haqidagi ma'lumotnomani taqdim etganligi sababli soliq stavkalar jadvalidan kelib chiqib hisoblanadi. 16%lik stavkada soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, soliq hisoblab yozamiz:

$$(5\,780\,000 - 3\,199\,325) \times 16\% = 2\,580\,675 \times 16\% = 412\,908 \text{ so'm.}$$

Jismoniy shaxsning bir yillik daromad solig'i summasi:

$$319\,932,5 + 412\,908 = 732\,840,5 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 660 516,5 so'm soliq ushlanganligi bois, dekabr oyida u 72 324 so'mni (732 840,5 - 660 516,5) tashkil qiladi.

Bir yil uchun ShJBPHga majburiy badallar miqdori:

$$5\,780\,000 \times 1\% = 57\,800 \text{ so'mni tashkil qiladi.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 52 100 so'm majburiy badallar yo'naltirilgan, dekabr oyi uchun ajratma miqdori 5 700 so'mni (57 800 - 52 100) tashkil qiladi. Byudjetga:

$$72\,324 - 5\,700 = 66\,624 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

### **11-VAZIYAT. O'rindoshlik asosida ishga qabul qilingan xodimning daromadlaridan olinadigan soliq hisob-kitobi.**

O'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimga yanvar-iyul oylarida 240 000 so'm, avgust-noyabr oylarida - 270 000 so'm, dekabr oyida - 300 000 so'm ish haqi hisoblab yozildi. Uning bir yil uchun asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadi 3 060 000 so'mga (240 000 + 240 000 + 240 000 + 240 000 + 240 000 + 240 000 + 240 000 + 270 000 + 270 000 + 270 000 + 270 000 + 300 000) teng. U SK 180-moddasi ikkinchi qismining 8-bandiga muvofiq imtiyozga ega. Xodim korxonaga buxgalteriyasiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini eng yuqori

stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etmagan. SK 186-moddasining to'qqizinchi qismiga muvofiq, asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish SK 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llamasdan jami daromad summasidan amalga oshiriladi.

3 060 000 so'm daromad 3 199 325 so'mdan oshmasligi sababli, unga eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi. Yanvar-dekabr oylari uchun soliq:

$$3\,060\,000 \times 10\% = 306\,000 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 276 000 so'm soliq ushlanganligi bois, dekabr oyi uchun uning summasi 30 000 so'mga (306 000 - 276 000) teng.

Bir yil uchun ShJBPHga majburiy badallar:

$$3\,060\,000 \times 1\% = 30\,600 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 27 600 so'm majburiy badallar yo'naltirilgan, dekabr oyi uchun ajratmalar 3 000 so'mni (30 600 - 27 600) tashkil etadi, budjetga:

$$30\,000 - 3\,000 = 27\,000 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

## **12-VAZIYAT. Ilgari ishlamagan xodim daromadlaridan olinadigan soliq hisob-kitobi.**

Aprel oyida xodim ishga qabul qilingan. Unga 600 000 so'm miqdorida mehnat haqi belgilangan. Avgust oyida u 700 000 so'mgacha, dekabr oyidan boshlab esa - 770 000 so'mgacha oshirildi. Joriy yilning aprel oyiga qadar u umuman ishlamagan (mehnat daftarchasi mavjud emas) yoki yil boshidan hech qaerda ishlamadi (mehnat daftarchasidagi ishdan bo'shatish to'g'risidagi oxirgi yozuvga binoan).

Xodimning aprel-dekabr oylaridagi mehnat haqi miqdori 5 970 000 so'mga (600 000 + 600 000 + 600 000 + 600 000 + 700 000 + 700 000 + 700 000 + 700 000 + 770 000) teng.

16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblab chiqarib, unga soliq hisoblab yozamiz:

$$(5\,970\,000 - 3\,199\,325) \times 16\% = 2\,770\,675 \times 16\% = 443\,308 \text{ so'm.}$$

Soliq stavkalari jadvaliga binoan, bir oyda EKIHNing 5 baravarigacha daromadlardan soliq 319 932,5 so'mga teng.

Jismoniy shaxsning daromadlaridan ushlanadigan soliq summasini hisoblab chiqamiz:

$$319\,932,5 + 443\,308 = 763\,240,5 \text{ so'm.}$$

Aprel-noyabr oylarida 658 916,5 so'm soliq ushlanganligi bois, dekabr oyi uchun uning summasi 104 324 so'mni (763 240,5 - 658 916,5) tashkil qiladi.

Aprel-dekabr oylari uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi:

$$5\,970\,000 \times 1\% = 59\,700 \text{ so'mga teng.}$$

Aprel-noyabr oylarida ShJBPHga 52 000 so'm majburiy badallar o'tkazilgan, tegishincha, dekabr oyi uchun ajratma miqdori 7 700 so'mni (59 700 - 52 000) tashkil qiladi. Byudjetga:

$$104\,324 - 7\,700 = 96\,624 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

Soliq solish shkalasi bo'yicha qayta hisob-kitob yil yakunlari bo'yicha soliq deklaratsiyasi topshirilgan taqdirda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Deklaratsiya bo'yicha soliq summasini mustaqil ravishda hisoblashda soliq summasi soliq solinadigan daromad miqdori (deklaratsiyaning III bo'limida ko'rsatilgan summa)ga bog'liq bo'lib, 2012 yildagi shkala yordamida hisoblab chiqariladi.

Shkala bo'yicha hisoblangan JShDS soliq solinadigan daromadning 1%i miqdorida ShJBPHga majburiy badallar summasiga kamaytiriladi. Bunda daromadlarning dividendlar, foizlar, ijaradan olinadigan daromadlar singari turlaridan ShJBPHga ajratmalar amalga oshirilmaydi. Shu tariqa, shkala bo'yicha hisoblab yozilgan soliqning umumiy summasidan ShJBPHga badallar summasi chegiriladi va Xalq bankiga o'tkaziladi, qolgan qismi budjetga o'tkaziladi.

**MISOL.** 2011 yilda F.U.Mirzaahmedova quyidagicha daromadlar olgan: asosiy ish joyidan: ish haqi - 4 640 ming so'm, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilishga moddiy yordam - 370 ming so'm;

asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha: ish haqi - 2 810 ming so'm, to'yga qiymati 660 ming so'mlik sovg'a.

2011 yil uchun jami yillik daromad 8 480 000 so'mni (4 640 + 370 + 2 810 + 660) tashkil qiladi.

Jami daromaddan chegirmalar (JShDS bo'yicha imtiyozlar) - 747 520 so'm, shu jumladan:

moddiy yordam summasi to'laligicha (370 ming so'm), chunki u EKIHning 12 baravaridan kam;

EKIHning 6 baravari doirasida sovg'aning qiymati (SK 179-moddasining 14-bandi) - 377 520 so'm, qolgan summa - 282 480 so'm (660 000 - 377 520) soliq solinadigan daromadga kiritiladi.

Yil uchun soliq solinadigan daromad summasidan - 7 732 480 so'm (8 480 000 - 747 520) - soliq shkala bo'yicha hisoblanadi:

$$(831\,824,5 + (7\,732\,480 - 6\,398\,650) \times 22\%) = 1\,125\,267,1 \text{ so'm.}$$

Ushbu summadan F.U.Mirzaahmedova ShJBPHga 77 324,8 so'm (7 732 480 x 1%), budjetga 1 047 942,3 so'm (1 125 267,1 - 77 324,8) miqdorida soliq o'tkazadi.

Agar asosiy va asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha olingan ma'lumotnomalarga ko'ra budjetga haqiqatda to'langan soliqning umumiy summasi 1 047 942,3 so'mdan ko'p bo'lsa, daromadlarni deklaratsiyalash paytida ortiqcha to'lov qaytariladi yoki mol-mulk va yer soliqlarini to'lash hisobiga qayd etiladi. Agar budjetga to'langan soliq summasi 1 047 942,3 so'mdan kam bo'lsa, to'lanmagan summani 2012 yil 1 iyundan kechiktirmay to'lash kerak.

## **2.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi orqali soliqla tortishning amaldagi holati tahlili**

2012 yil uchun deklaratsiyada jismoniy shaxs 2012 yilda barcha manbalardan olgan jami daromadlar hamda undan ushlab qolingani JShDS summolari aks ettiriladi. U shaklning o'zidagi ko'rsatmalarga qat'iy muvofiq holda to'ldiriladi. Ma'lumotlar ish beruvchilar (boshqa daromad manbalari)dan olingan to'langan daromadlar va ushlab qolingani JShDS summolari to'g'risidagi ma'lumotnomalar hamda deklaratsiya bilan birga taqdim etiladigan boshqa hujjatlar asosida ko'rsatiladi.

Deklaratsiyaning I bo'limida hisobot yilida olingan barcha daromadlar - turlari va to'lov manbalariga bo'lingan holda, shuningdek ushlangan soliq summolari (agar bu shaklda nazarda tutilgan bo'lsa) ko'rsatiladi. Agar jismoniy shaxs bir nechta manbadan moddiy yordam olgan bo'lsa, u holda moddiy yordamning butun summasi bo'limning 10-bandida ko'rsatiladi. Sovg'alarga nisbatan ham xuddi shunday tartib qo'llaniladi.

II bo'limda SKning 179-180-moddalari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan soliq bo'yicha imtiyozlar qo'llanilishi munosabati bilan soliq solinmaydigan barcha daromadlar ko'rsatiladi. Bo'limda moddiy yordam summolari va qimmatbaho sovg'alarning qiymati faqat SKning 179-moddasi bo'yicha soliq solinmaydigan qism doirasida ko'rsatilishiga e'tibor qarating:

- sovg'alar bo'yicha - EKIHning 6 baravari (*14-band*);
- moddiy yordam bo'yicha:
  - vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari - EKIHning 20 baravarigacha miqdorda;
  - boshqa hollarda, favqulodda holatlar bundan mustasno - EKIHning 12 baravarigacha miqdorda (*1-band*).

Hisob-kitob 2011 yil 31 dekabrda EKIH miqdoridan - 62 920 so'mdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

*MISOL. 2011 yilda R.P.Ahmedov asosiy va asosiy bo'lmagan ish joyidan to'y munosabati bilan moddiy yordam oldi. Olingan moddiy yordamning umumiy summasi deklaratsiya I bo'limining 10-bandida ko'rsatiladi.*

*II bo'limda SK 179-moddasining 1-bandi asosida soliq solinmaydigan moddiy yordam summasi - EKIHNing 12 baravari doirasida - 755 040 so'm (62 920 x 12) aks ettiriladi.*

*Agar ikki manba bo'yicha moddiy yordam summasi 850 000 so'mni tashkil etsa, ya'ni EKIHNing 12 baravaridan oshsa, II bo'limning «b» bandida faqat 755 040 so'm ko'rsatiladi. 94 960 so'm (850 000 - 755 040) tarzidagi farq soliq solinadigan daromadga kiritiladi.*

*Agar moddiy yordamning umumiy summasi 690 000 so'mga teng bo'lsa, ya'ni EKIHNing 12 baravaridan kam bo'lsa, II bo'limda haqiqatda olingan summa - 690 000 so'm ko'rsatiladi.*

Jami yillik daromad bilan soliq imtiyozlari summasi (II bo'limning «a»-»n» bandlaridagi summa) o'rtasidagi farq jismoniy shaxsning soliq solinadigan daromadi va soliqni hisoblab chiqarish uchun deklaratsiyaning III bo'limida ko'rsatiladigan baza bo'lib hisoblanadi.

Deklaratsiyaning IV bo'limida hisobot yili uchun to'lanadigan soliq summasining hisob-kitobi ko'rsatiladi. Mazkur summa yil davomida haqiqatda to'langan summa bilan taqqoslanadi va farq mavjud bo'lgan taqdirda, qo'shimcha to'lash yoki qaytarish uchun JShDS summasi aniqlanadi.

Majburiy va ixtiyoriy ravishdagi jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya soliq to'lovchining doimiy yashash (hisobga olish) joyidagi soliq inspeksiyasiga taqdim etiladi. U shaxsan yoki buyurtma xat bilan pochta orqali yoxud axborotning elektron tashuvchisida taqdim etilishi mumkin (*SKning 45, 191-moddalari*).

2011 yilda olingan daromadlar (ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno) bo'yicha deklaratsiya 2012 yil 2 apreldan kechiktirmasdan\*\*, MV va DSQning AV tomonidan 2008 yil 21 yanvarda 1760-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladi.

Ijaraga beruvchi jismoniy shaxs bo'lgan taqdirda mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar oldindan - ijara bo'yicha daromadlar olingan birinchi oydan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmasdan deklaratsiya qilinadi. Ular bo'yicha yakuniy deklaratsiya majburiy ravishda, ijaraga beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lganidan qat'i nazar, tugagan yildan keyingi yilning 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Deklaratsiyaga ish beruvchilar va daromad manbai bo'lgan boshqa yuridik shaxslar tomonidan berilgan to'langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risidagi ma'lumotnomalar ilova qilinishi kerak. Ma'lumotnomalar daromad olingan korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriyasi tomonidan MV va DSQning AV tomonidan 21.01.2008 yilda 1760-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qaroriga 2-ildan keltirilgan shakl bo'yicha beriladi.

JShDS bo'yicha imtiyoz huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar deklaratsiyalash paytida ularning asosida imtiyoz qo'llaniladigan hujjatlarni taqdim etishlari va deklaratsiyada ko'rsatishlari kerak. Masalan, grant oluvchilar deklaratsiyaga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining xulosasini; SKning 180-moddasiga muvofiq EKIHning 4 baravari miqdorida chegirma tarzidagi imtiyoz huquqiga ega bo'lgan shaxslar - imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatni («O'zbekiston Qahramoni» unvoni haqidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni daftarchasi, pensiya guvohnomasi va hokazoni) ilova qilishlari kerak.

Ta'lim olish uchun haq to'lash bo'yicha SKning 179-moddasi 6-bandiga asosan imtiyozni qo'llayotgan shaxslar soliq inspeksiyasiga O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomda (*MV va DSQning AV tomonidan 27.05.2010 yilda 2107-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan*) ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha ortiqcha to'lov summasi soliq to'lovchi uni qaytarish haqidagi arizani taqdim etgan kundan boshlab 30 ish kuni ichida uning bank hisobraqamiga qaytariladi yoki mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha to'lovlarni to'lash hisobiga kiritiladi.

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha ortiqcha to'langan summa soliq organlari tomonidan qaytariladi. Buning uchun jismoniy shaxs 2011 yil 1 aprelgacha yashash (ro'yxatga olish) joyidagi DSIga jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya va barcha manbalardan olingan daromadlar to'g'risida ma'lumotnoma (ish beruvchi korxonaga va boshqa to'lov manbalarining buxgalteriyasi tomonidan beriladi) taqdim etishi kerak. Agar xodim soliq bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lsa, ularga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan hujjatlarni (guvohnomalar, ma'lumotnomalar va hokazo) taqdim etishi kerak. Deklaratsiyada ma'lumotnomalarda ko'rsatilgan yil davomida olingan barcha daromadlar va ulardan ushlab qolgan jismoniy shaxslar daromad solig'ining summalari ko'rsatilishi lozim.

Taqdim etilgan hujjatlar asosida soliq organi belgilangan jadval bo'yicha jami daromaddan soliqning uzil-kesil summasini hisoblaydi va, agar hisob-kitob bo'yicha ortiqcha to'langan summa aniqlansa, ushbu summa soliq to'lovchining arizasi bo'yicha 30 kun mobaynida qaytariladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha soliq eng yuqori stavka bo'yicha ushlangan bo'lsa, daromadlarni deklaratsiyalash shart emas. Biroq deklaratsiya soliq to'lovchining o'z tashabbusi bilan taqdim etilishi mumkin, chunki ortiqcha to'langan soliq summasini qaytarish yoki (uning xohishi bo'yicha) uni mol-mulk va yer soliqlarini to'lashga yo'naltirish uning manfaatiga xizmat qiladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyida eng yuqori stavkada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ortiqcha to'lanishiga misol keltiramiz.

**MISOL.** *Xodim 2010 yilda olgan daromadlari:*

– asosiy ish joyi bo'yicha - 3 500 000 so'm, shu jumladan: ish haqi - 2 800 000 so'm, mukofotlar - 700 000 so'm. Jadval bo'yicha ushlangan jismoniy

*shaxslardan olinadigan daromad solig'i\* 417 032,2 so'mni tashkil qildi, undan ShJBPHga 35 000 so'm o'tkazildi;*

*– asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha daromad 1 200 000 so'mni tashkil qildi, shu jumladan: ish haqi - 1 000 000 so'm, moddiy yordam (to'y munosabati bilan berilgan) - 200 000 so'm. Xodimning arizasiga ko'ra soliq eng yuqori stavkada (22%) ushlendi, u bir yil uchun 264 000 so'mni tashkil qildi, undan ShJBPHga 12 000 so'm ajratildi.*

*Xodimning jami yillik daromadi 4 700 000 so'mni (3 500 000 + 1 200 000) tashkil qildi. Biroq soliq hisob-kitobi uchun jami daromad emas, balki belgilangan imtiyozlarni hisobga olgan holda aniqlanadigan soliq solinadigan daromad qabul qilinadi. Bizning misolda moddiy yordam summasi soliq solinmaydigan daromad hisoblanadi, chunki SKning 179-moddasiga ko'ra eng kam ish haqining 12 baravarigacha miqdordagi moddiy yordamga (mazkur holda - to'yga moddiy yordam) soliq solinmaydi. Shu tariqa, soliq solinadigan daromad 4 500 000 so'mni (4 700 000 - 200 000) tashkil qiladi.*

*Belgilangan jadval bo'yicha hisoblangan soliq summasi 587 032,2 so'mni [(4 500 000 - 2 966 130) x 17% + 326 274,3] tashkil qiladi. Undan ShJBPHga 45 000 so'm (4 500 000 x 1%) ajratiladi, budjetga 542 032,2 so'm (587 032,2 - 45 000) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lanadi.*

*Asosiy va asosiy bo'lmagan ish joyidan o'tgan yili xodimning daromadidan 681 032,2 so'm (417 032,2 + 264 000) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlangan, ShJBPHga 47 000 so'm, budjetga esa 634 032,2 so'm o'tkazilgan. Ya'ni amalda uzil-kesil hisob-kitobdagiga qaraganda ko'proq summa ushlangan.*

*Soliq to'lovchiga budjetdan 92 000 so'm (634 032,2 - 542 032,2) qaytarilishi kerak.*

*Shuni ham ta'kidlash lozimki, har doim ham asosiy bo'lmagan ish joyida eng yuqori stavkada soliq ushlanganida unga doir ortiqcha to'lov yuzaga kelavermaydi.*

**MISOL.** *Xodim 2010 yilda olgan daromadlari (imtiyozlar nazarda tutilmagan):*

– asosiy ish joyi bo'yicha - 5 100 000 so'm, 696 854,7 so'm miqdorida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlangan, undan ShJBPHga 51 000 so'm o'tkazilgan;

– asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha - 2 500 000 so'm, 22%lik stavka bo'yicha ushlangan soliq - 550 000 so'm, undan ShJBPHga 25 000 so'm ushlangan.

Soliq solinadigan jami yillik daromad 7 600 000 so'mni (5 100 000 + 2 500 000) tashkil qiladi. Yil davomida to'lanadigan soliq 1 246 854,7 so'mga [(662 435,7 + (7 600 000 - 4 943 550) x 22%)] teng, undan ShJBPHga 76 000 so'm (7 600 000 x 1%) ajratiladi, budjetga 1 170 854,7 so'm (1 246 854,7 - 76 000) o'tkaziladi.

Amalda yil davomida 1 246 854,7 so'm soliq to'langan, undan ShJBPHga 76 000 so'm, budjetga 1 170 854,7 so'm o'tkazilgan.

Shu tariqa, budjetga to'lanadigan soliq summasi yil davomida amalda ushlangan summaga to'liq muvofiq keladi, ya'ni soliq bo'yicha ortiqcha to'lov yuzaga kelmagan.

2011 yilgi daromadlarni deklaratsiyalash paytida aniqlangan JShDSning kam to'langan qismi 2012 yil **1 iyundan kechiktirmay** to'lanishi kerak (*SKning 193-moddasi*). Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqarilgan JShDS to'lov xabarnomasida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda to'lanadi. SK qo'shimcha hisoblangan JShDSning butun summasi bir vaqtda to'lanishini talab qilmasligini ta'kidlaymiz. Binobarin, uni qismlarga bo'lib to'lash mumkin. Biroq bunda butun summa ko'rsatib o'tilgan muddat - 1 iyundan kechiktirmay to'lanishi kerak.

Mol-mulkni boshqa jismoniy shaxslarga (shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarga) berishdan olingan daromadlardan soliq har oyda, daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha dastlabki deklaratsiya bo'yicha to'lanadi. Yakuniy deklaratsiya asosida yil yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan summa keyingi yilning 15 martidan kechiktirmay to'lanishi kerak.

Soliq budjetga yoki jismoniy shaxsning bankdagi hisobraqamidan yoxud bank kassasiga naqd pul bilan soliq organi ko'rsatgan hisob-kitob raqamiga yo'naltirgan

holda to‘lanadi. Soliqni xorijiy valyutada xorijiy davlatda joylashgan bank hisobraqamidan to‘lashga yo‘l qo‘yiladi. Mazkur holda milliy valyutadagi soliq summasi to‘lov kuni MB kursi bo‘yicha xorijiy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Deklaratsiyani taqdim etish tartibini buzganlik uchun soliq to‘lovchiga Soliq kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (*MJTK*)da nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

Deklaratsiyani taqdim etmaslik, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoki belgilangan shaklda taqdim etmaganlik uchun quyidagi miqdorda jarima to‘lanadi:

- EKIHning bir baravaridan uch baravarigacha (*MJTKning 174-moddasi*);
- ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida qoidabuzarlik takroran sodir etilganda - muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun 1% miqdorida, biroq belgilangan to‘lov muddatida to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lov miqdoridan tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblangan to‘lovlar chegirib tashlangan summaning 10%idan ko‘p bo‘lmagan miqdorda (*SKning 115-moddasi*).

Agar deklaratsiya uzrli sababga ko‘ra (masalan, xizmat safari, kasallik va boshqalar tufayli) o‘z vaqtida taqdim etilmagan bo‘lsa, soliq inspeksiyasiga qo‘shimcha ravishda tushuntirish xati va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

Soliq organi tomonidan hisoblab chiqarilgan va to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan soliq summasi belgilangan muddatda to‘lanmagan bo‘lsa, u holda to‘lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e‘tiboran muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to‘lov kuni ham shunga kiradi, tegishli soliq summasiga penya hisoblanadi (*SKning 120-moddasi*).

Agar soliq to‘lovchi deklaratsiyani taqdim etayotganda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kama-yishiga olib keluvchi xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, u holda deklaratsiyaga xatoni tuzatadigan o‘zgartirishlarni kiritishi shart. Soliq to‘lovchi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi arizani soliqni to‘lash muddati tugaguniga qadar bersa, u javobgarlikdan ozod etiladi. Agar uni kechroq, biroq soliq organi xatoni aniqlashidan oldin bersa, soliq to‘lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to‘lagan taqdirda,

javobgarlikdan ozod etiladi. Jismoniy shaxs taqdim etgan deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun soliq organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi (*SKning 191-moddasi*).

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlariga JShDS solinmaydi. SK 179-moddasining 31-bandiga binoan mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomga (*MV va DSQning AV tomonidan 27.05.2010 yilda 2107-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan*) muvofiq qo'llaniladi.

Uni qo'llash huquqiga 26 yoshga to'lmagan ta'lim oluvchining ota-onasi, shuningdek yoshidan va hisobot yilidagi mavjud daromadlaridan qat'i nazar ta'lim oluvchining o'zi ega.

Haq to'lash usuliga qarab imtiyoz ish joyi (daromad olish joyi) bo'yicha yoki deklaratsiyalash paytida qo'llanilishi mumkin. Agar ta'lim olish uchun haqni jismoniy shaxs daromadlari hisobiga korxonaga o'tkazayotgan bo'lsa, imtiyozni ham u qo'llaydi. Ta'lim haqini ota-ona yoxud ta'lim oluvchining o'zi to'lagan bo'lsa (naqd pul bilan, jismoniy shaxslarning bankdagi omonat va boshqa hisobraqamlaridagi mablag'lar hisobiga, plastik kartochkalarni qo'llagan holda), imtiyozni deklaratsiyalash paytida soliq organi qo'llaydi.

Soliq chegirmasi huquqiga ega bo'lgan shaxs (ota-ona yoki talaba) yashash joyidagi soliq inspeksiyasiga deklaratsiya topshirish paytida quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- to'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ish beruvchilar va boshqa daromad manbalaridan olingan ma'lumotnoma (ma'lumotnomalar);
- talaba (talabalar) va O'zbekiston oliy o'quv yurti o'rtasida tuzilgan pulli-kontrakt asosida ta'lim olish to'g'risidagi shartnoma nusxasi;

- tijorat banki bilan tuzilgan ta'lim kreditini olishga shartnoma nusxasi (agar u tuzilgan bo'lsa);

- oliy o'quv yurti hisobraqamiga (tijorat banki hisobraqamiga - ta'lim kreditini so'ndirishda) pul mablag'lari mustaqil ravishda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

- pasport nusxasi (soliq chegirmasini ta'lim oluvchining o'zi qo'llaganda);

- pasport nusxasi (soliq chegirmasini ota-ona qo'llaganda) va ta'lim oluvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi;

- soliq chegirmasi huquqiga ega bo'lgan boshqa jismoniy shaxslarning pasport nusxalari va STIRi (agar imtiyoz huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar bitta soliq inspeksiyasida hisobga qo'yilgan bo'lsa);

- soliq chegirmasi huquqiga ega bo'lgan boshqa jismoniy shaxslar imtiyozni qo'llaganligi yoki qo'llamaganligi haqidagi ma'lumotnoma (ma'lumotnomalar) (agar ular turli soliq inspeksiyalarida hisobga qo'yilgan bo'lsa).

Xodimga (ota yoki onaga) farzandining oliy o'quv yurtidagi o'qishini to'lash uchun qarz (ta'lim krediti) berilgan hollarda to'lov manbaidagi soliq chegirmasi qarz (kredit)ni so'ndirishga yo'naltiriladigan daromadlarga nisbatan ta'lim oluvchi 26 yoshga to'lgunga qadar qo'llanilganda ham deklaratsiyalash yakunlari bo'yicha soliq chegirmasi qo'llanilishi mumkin. Qolgan summaga nisbatan imtiyozni ta'lim oluvchining o'zi (agar u soliq solinadigan daromadga ega bo'lsa) DSIga jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya, imtiyoz qo'llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek to'lov manbaida chegirmani qo'llagan ota yoki onaning to'langan daromadlar va ushlab qolingan JShDS summalari to'g'risidagi ma'lumotnoma, shuningdek oliy o'quv yurtiga mablag'lar o'tkazishga to'lov topshiriqnomasining nusxasini taqdim etganda qo'llashi mumkin.

Deklaratsiya va zarur hujjatlar taqdim etilganidan keyin soliq organi jismoniy shaxsning soliq solinadigan daromadlari - soliq solinmaydigan daromadlar (shu jumladan ta'lim olish uchun haqni to'lashga yo'naltirilgan summalar) chegirilgan holda deklaratsiyada ko'rsatilgan jami daromaddan kelib chiqib JShDSning yillik summasini hisoblab chiqaradi. Hisoblab chiqilgan summa 2011 yilda haqiqatda

ushlab qolingana summa bilan taqqoslanadi hamda ortiqcha to'langan soliq summasi qaytarib berishga ariza taqdim etilgan kundan boshlab 30 kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoxud mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha to'lovlarni to'lash hisobiga kirim qilinadi.

Shuni hisobga olish lozimki, soliq chegirmasi ta'lim olish uchun 2011 yilda to'langan haq summasiga, biroq deklaratsiyada ko'rsatilgan jami yillik daromad doirasida taqdim etiladi. Agar ta'lim uchun haq summasi ota yoki onaning biri olgan daromadidan ko'p bo'lsa, u holda qolgan summaga nisbatan imtiyozni ota yoki onaning boshqa biri qo'llashi mumkin.

Ta'lim uchun haq summasi imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning jami daromadidan ko'p bo'lsa, u holda vujudga kelgan farqqa nisbatan imtiyoz qo'llanilmaydi va chegirma keyingi yilga ko'chirilmaydi.

***MISOL.** O'g'lining 2011 yildagi o'qishi uchun ota-ona 2 700 ming so'm to'ladi. Taqdim etilgan deklaratsiyalarga muvofiq otaning 2011 yildagi jami daromadi 1 600 ming so'mga, onaniki - 1 000 ming so'mga teng, talabaninig o'zi daromadga ega emas.*

*Ota-onaning har biri o'z daromadlari doirasida soliq chegirmasini qo'llashga haqli. Mazkur holda ota-onaning daromadlaridan jami chegirma summasi 2 600 ming so'mni ( $1\ 600 + 1\ 000$ ) tashkil qiladi. Qolgan summa - 100 ming so'mga ( $2\ 700 - 2\ 600$ ) - imtiyoz qo'llanilmaydi, keyingi yilga ham o'tkazilmaydi.*

- SK 179-moddasining 31-bandiga muvofiq fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun haq to'lashga yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi. Soliq chegirmasini olish O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizom (MV va DSQning AV tomonidan 2010 yil 27 mayda 2107-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan, bundan keyin - 2107-son Nizom) bilan tartibga solinadi.

Ushbu hujjatga ko'ra, soliq chegirmasi ta'lim oluvchining o'qishiga haq to'lash chog'ida, shuningdek yigirma olti yoshgacha bo'lgan o'z farzandining o'qishi uchun haq to'laydigan uning ota-onasiga beriladi. O'qish uchun haq to'lash usuliga bog'liq holda imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish yo'li bilan yoxud to'lov manbaida (ish yoki daromad olish joyi bo'lgan korxonadan) qo'llanishi mumkin.

Deklaratsiyalash chog'ida imtiyoz ota-onalar yoki ta'lim oluvchilarning o'zlari tomonidan mustaqil ravishda:

- naqd pul hisobiga;
- jismoniy shaxslarning banklardagi omonat va boshqa hisobraqamlaridan plastik kartalardan foydalangan holda amalga oshirilganda qo'llanishi mumkin (*2107-son Nizomning 16-bandi*).

Agar yil mobaynida imtiyozni qo'llash imkoni bo'lmagan bo'lsa, deklaratsiyalash chog'ida ham soliq chegirmasi taqdim etiladi. Masalan, talabani o'tasi yoki onasiga ta'lim haqini to'lash uchun qarz (ta'lim krediti) berilgan va uni uzish davrida talaba 26 yoshga to'lgan deylik. Tegishincha, daromadlarni to'lash manbai bo'lgan korxonaning buxgalteriyasi soliq chegirmasini qarz (kredit)ni uzishga yo'naltirilgan barcha summaga emas, balki uning faqat bir qismiga (talaba 26 yoshga to'lguncha bo'lgan davrga) qo'lladi. Qolgan summaga oid imtiyozdan faqat talabani o'zi o'z daromadlarini deklaratsiyalash chog'ida foydalanishi mumkin. Agar unda soliq solinadigan daromadlar mavjud bo'lmasa, qolgan summaga imtiyoz qo'llanmaydi.

Soliq chegirmasini qo'llash uchun ota (ona) yoki talaba 2012 yilning 1 apreliyigacha yashash joyidagi soliq inspeksiya-siga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya (*bundan keyin - Deklaratsiya*);
- ish beruvchilardan hamda boshqa daromad manbalaridan to'langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlangan summalari to'g'risidagi ma'lumotnoma (ma'lumotnomalar);

- talaba (talabalar) bilan O‘zbekiston oliy o‘quv yurti o‘rtasida to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish to‘g‘risida tuzilgan shartnoma (shartnomalar) nusxasi;
- tijorat banki bilan ta‘lim kreditini olish uchun tuzilgan shartnoma (shartnomalar) nusxasi (*agar u tuzilgan bo‘lsa*);
- oliy o‘quv yurti hisobraqamiga (ta‘lim kreditini qoplaganda tijorat banki hisobraqamiga) pul mablag‘lari mustaqil to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;
- pasport nusxasi (solliq chegirmasi ta‘lim oluvchining o‘zi tomonidan qo‘llanilganda);
- pasport nusxasi (solliq chegirmasi ota-ona tomonidan qo‘llanilganda) va ta‘lim oluvchining tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi nusxasi;
- solliq chegirmasiga haqli bo‘lgan boshqa jismoniy shaxslarning pasport nusxalari va STIRlari (agar imtiyozga haqli bo‘lgan shaxslar bitta solliq inspeksiya-siga hisobga qo‘yilgan bo‘lsalar);
- solliq chegirmasiga haqli bo‘lgan boshqa jismoniy shaxslar tomonidan imtiyoz qo‘llanganligi yoki qo‘llanmaganligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma (ma‘lumotnomalar) (agar imtiyozga haqli shaxslar turli solliq inspeksiya-larida hisobga qo‘yilgan bo‘lsalar).

Deklaratsiya va tegishli hujjatlar taqdim etilganida solliq organi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining uzil-kesil summasini jismoniy shaxs tomonidan Deklaratsiyada bayonot berilgan jami daromad - jismoniy shaxsning solliq solinadigan daromadidan kelib chiqib, solliq solinmaydigan daromadlarni (SKga muvofiq solliq chegirmalarini) chegirgan holda, hisob-kitob qiladi. Jismoniy shaxslar tomonidan oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olishga yo‘naltiriladigan summalar ham solliq chegirmalari sirasiga kiradi. Solliq organi tomonidan hisoblangan solliq summasi yil mobaynida barcha daromadlardan amalda ushlangan summa bilan taqqoslanadi. Ortiqcha to‘langan summa esa solliq to‘lovchiga qaytarilishi to‘g‘risida ariza berilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida qaytariladi yoki mol-mulk solig‘i yoki yer solig‘i bo‘yicha to‘lovlarni to‘lash hisobiga qayd etiladi.

2011 yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun 2011 yilda daromad solig'ini hisoblash shkalasi qo'llanadi.

Agar ta'lim olish uchun haq summasi imtiyozga haqli bo'lgan bir shaxsning (ota, ona, ta'lim oluvchining o'zi) yillik daromadidan oshib ketmasa, soliq chegirmasi u bayonot bergan daromad doirasida to'liq qo'llanadi. Agar to'lov summasi ko'p bo'lsa, qolgan summaga soliq chegirmasi oilaning boshqa a'zolariga (ona, ota, ta'lim oluvchiga) beriladi.

Ushbu holda soliq chegirmasini qo'llash uchun deklaratsiyalash tartibi ota-onalar va ularning bolalari - respublika oliy o'quv yurtlarining talabalari bitta yoki turli inspektsiyalarda hisobda turishlariga bog'liqdir. Agar ular bitta DSIda (ro'yxatga olingan joy bo'yicha) hisobda turishsa, soliq organi o'zidagi mavjud axborot va taqdim etilgan pasportlar nusxalari hamda STIR asosida ular soliq chegirmasi ko'rinishidagi imtiyozni qo'llagan-qo'llamaganligini mustaqil ravishda belgilaydi.

Biroq agar har bir ota-ona va ta'lim oluvchi turli DSIlarda hisobda turishsa, Deklaratsiya va boshqa hujjatlar bilan birga ro'yxatga olingan joydagi soliq organining imtiyozga haqli boshqa shaxslar tomonidan soliq chegirmasi qo'llanganligi yoki qo'llanmaganligi to'g'risida ma'lumotnomasi (yoki ma'lumotnomalar) taqdim etilishi kerak.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar uchun ushbu daromadlarni deklaratsiyalashning alohida tartibi belgilangan. Agar ijarachi jismoniy shaxs bo'lsa, u holda ijaraga beruvchi daromad paydo bo'lgan kundan boshlab birinchi oy tugagandan keyin 5 kunlik muddat ichida DSIGA dastlabki deklaratsiyani taqdim etishi shart. Yakuniy deklaratsiya tugagan soliq davridan keyingi yilning 15 yanvarigacha soliq to'lov manbaida ushlanganligidan (ijarachi - yuridik shaxs tomonidan) yoki ijaraga beruvchining o'zi tomonidan to'langanligidan qat'i nazar taqdim etiladi.

Dastlabki deklaratsiya asosida soliq daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha har oyda to'lanadi. Yillik soliq summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha yakuniy deklaratsiya asosida hisoblab chiqariladi. Yillik soliq summasi

bilan yil davomida to'langan summalar o'rtasidagi farq soliq to'lovchidan hisobot yilidan keyingi yilning 15 martidan kechiktirilmay undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Ijaradan daromadlar olinishi tugatilganda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi DSIga tegishli yozma xabarnoma topshirishi kerak (*SKning 192-moddasi*).

Ijaradan olingan daromadlardan tashqari, hisobot yilida asosiy bo'lmagan ish joyi va boshqa manbalardan daromad olgan shaxslar tomonidan deklaratsiya taqdim etish tartibiga e'tibor qaratish lozim. Ular deklaratsiyani ikki marta: 15 yanvargacha va 1 apreldan kechiktirmay taqdim qilishlari kerak. Bunda mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar deklaratsiya I bo'limining 5-bandidagi jadvalda takrorlanishi zarur.

Biroq agar 2011 yilda ijara haqi summasidan ijarachi - yuridik shaxs soliqni ijaraga beruvchining yozma arizasi asosida eng yuqori stavkada ushlab qolgan bo'lsa, u holda jismoniy shaxsning boshqa daromad manbalari bo'lganida (asosiy ish joyi bo'yicha JShDS shkala bo'yicha, qolgan soliq agentlari - daromad to'lash manbalari tomonidan esa - eng yuqori stavkada ushlab qolish sharti bilan) 1 apreldan kechiktirmay jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish shart emas.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 2012 yil 1 yanvardan boshlab, SKning 181-moddasiga binoan, jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga eng kam stavka (9%) bo'yicha soliq solinadi.

Shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joylarni ijaraga berishdan olingan daromadlarga soliq solish tartibi ham o'zgartirilgan. Ularga soliq solish shartnomada belgilangan, biroq 1 kv.m uchun belgilangan bir oylik ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblab chiqilgan ijara haqi summasidan amalga oshiriladi (Prezidentning 30.12.2011 yildagi PQ-1675-son qaroriga 26-ilova):

- Toshkent shahrida - 3 000 so'm;
- Nukus shahri va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarda - 2 000 so'm;

– boshqa aholi punktlarida - 1 000 so‘m.

Mazkur tartib uy-joyni ham jismoniy shaxslarga, ham yuridik shaxslarga ijaraga beruvchi jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Ular tomonidan noturar joy ijaraga berilganda olingan daromadlarga soliq shartnomada belgilangan ijara haqi summasidan kelib chiqib solinadi (MV va DSQning 6.02.2012 yildagi MM/04-01-32-14/135, 15/1-1670-son tushuntirish xati).

Eslatib o‘tamiz, 2012 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolar o‘rtasida tuziladigan turar joyni yoki bino va inshootlarni yoxud ularning bir qismini ijaraga berish shartnomalari notarial tasdiqlanishi kerak (FKning 574, 603-moddalari). Buning uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning (AV tomonidan 30.03.2010 yilda 2090-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan AV buyrug‘i bilan tasdiqlangan) 136-bandida keltirilgan.

***MISOL.** 2011 yil 1 martdan boshlab P.R.Mo‘minov yakka tartibdagi tadbirkorga noturar joyni ijaraga beradi. Ijara shartnomasi bo‘yicha ijara haqining yillik summasi 6 000 ming so‘mga (bir oyda 500 ming so‘m) teng. Ijaraga beruvchi P.R.Mo‘minov 5 apreldan kechiktirmasdan o‘zi yashaydigan joydagi DSIga dastlabki deklaratsiya va notarial tasdiqlangan ijara shartnomasini, deklaratsiyada 500 ming so‘mga teng bir oylik daromad summasini ko‘rsatgan holda, taqdim etishi kerak. Aprel oyidan boshlab u har oy, daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha 45 ming so‘m (500 x 9%) miqdorida JShDS to‘lab borishi kerak.*

*2012 yilning 15 yanvarigacha 2011 yil uchun ijaradan olingan daromadlar bo‘yicha yakuniy deklaratsiya taqdim etilishi kerak.*

2012 yilning 1 apreliga qadar O‘zbekiston rezidentlariga aylangan xorijiy jismoniy shaxslar 2011 yil uchun jami yillik daromad haqidagi deklaratsiyani O‘zbekiston fuqarolari ham taqdim etadigan shaklda taqdim etishlari kerak.

Eslatib o‘tamiz, SKning 19-moddasiga binoan O‘zbekistonda doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi 12

oylik davr ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat respublikada turgan jismoniy shaxs O'zbekiston rezidenti hisoblanadi.

Rezident bo'lgan xorijiy shaxslar uchun respublika fuqarolari uchun ham belgilangan muddatlar amal qiladi - deklaratsiya 1 apreldan kechiktirmasdan taqdim etiladi, u bo'yicha soliq (agar kam to'langanligi aniqlansa) hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyunigacha to'lanadi.

Rezident - xorijiy shaxs kalendar yil davomida o'z faoliyatini to'xtatib, respublikadan tashqariga chiqib ketishga qaror qilsa, u O'zbekistonda olgan daromadlari haqidagi deklaratsiyani chiqib ketishdan 1 oy oldin taqdim etishi hamda soliqni u taqdim etilgan paytdan boshlab 15 kun davomida to'lashi kerak. Xorijiy shaxs doimiy yashash uchun xorijga joriy yilning 1 fevraligacha chiqib ketisa, deklaratsiya taqdim qilinmaydi.

Yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun yuridik shaxsdan olingan daromadlarga (ya'ni mualliflik haqiga) belgilangan soliq shkalasi bo'yicha yoxud oluvchining arizasiga binoan eng yuqori stavka bo'yicha to'lov manbaida soliq solinadi.

Agar buyurtmachi jismoniy shaxs bo'lsa, u holda mualliflik haqi tarzidagi daromadlarga soliq deklaratsiya asosida solinadi.

Mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs o'z daromadidan ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan, biroq olingan daromadning 30%idan ko'p bo'lmagan xarajatlarni chegirish huquqiga ega. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

– fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan materiallarni xarid qilishga ketgan xarajatlar;

– fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, chop etish, ijro etish yoki ularni boshqacha tarzda qo'llash maqsadidagina foydalaniladigan xonalar va mol-mulkni ijaraga olish xarajatlari.

Amalga oshirilgan xarajatlarni chegirish huquqidan foydalanish uchun deklaratsiya bilan birga tasdiqlovchi hujjatlarni (haqi to'langanligi haqidagi kvitantsiya, NKM va to'lov terminallari cheklari va boshqalarni) taqdim etish

zarur. Chegirma summasini hisob-kitob qilishda O'zbekiston hududida hamda undan tashqarida to'langan summalar hisobga olinadi. Xorijiy valyutada to'langan xarajatlar ular to'langan kundagi MB kursi bo'yicha qayta hisob-kitob qilinadi.

**MISOL.** 2011 yilda B.B.Abubakirov quyidagi manbalardan daromad olgan:

– asosiy ish joyi - «Top» MChJdan (kichik biznes sub'ektlariga kiradi). MChJ buxgalteriyasiga Afg'oniston Respublikasida vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida xizmatni o'taganligi haqida mudofaa ishlari bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotnoma taqdim etilgan. B.B.Abubakirov MChJ muassislaridan biri hamdir;

– o'rindoshlik bo'yicha - «Astra» XKdan;

– 1 iyundan boshlab - mol-mulkni yakka tartibdagi tadbirkor M.N.Solihovga ijaraga berishdan. Bir oylik ijara haqi miqdori 240 ming so'mga teng.

2011 yilda B.B.Abubakirov 18 yoshli qizining Toshkent axborot texnologiyalari universitetidagi o'qishi uchun 1 980 ming so'm naqd to'ladi.

B.B.Abubakirovning 2011 yilda asosiy ish joyi - «Top» MChJdan olgan daromadlari 5 730 ming so'mni, shu jumladan:

– ish haqi - 3 810 ming so'm;

– dividendlar - 1 500 ming so'm;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun moddiy yordam - 180 ming so'm;

– qimmatbaho sovg'a - 240 ming so'mni tashkil qildi.

MChJ buxgalteriyasi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarishda SK 180-moddasi ikkinchi qismining 8-bandi asosida EKIHning 4 baravarini chegirish huquqidan foydalangan. Dividendlarni to'lashda ham soliq ushlanmagan, zero Prezidentning 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-son qarorining 5-bandiga asosan jismoniy shaxsning dividend tariqasida olgan daromadlari soliq solishdan ozod qilingan. Shkala bo'yicha ushlab qolingani JShDS summasi 125 054 so'mni tashkil qildi. Mazkur summadan ShJBPHga - 12 505,4 so'm, budjetga esa 112 548,6 so'm o'tkazildi. Asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha - «Astra» XKda - 2011 yildagi jami daromad 2 560 ming so'mni tashkil qildi.

JShDS hisob-kitobi belgilangan shkala bo'yicha amalga oshirilgan. Ushlab qolingani soliq summasi 256 000 so'mga teng, shundan ShJBPHga - 25 600 so'm, budjetga - 230 400 so'm o'tkazilgan. Mol-mulkni yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishdan olingan daromadlar iyun-dekabr oylarida 1 680 ming so'mni (240 x 7) tashkil qilgan. Dastlabki hamda 2012 yil 10 yanvarda taqdim etilgan yakuniy deklaratsiya asosida ushbu daromadlardan 168 000 so'm soliq to'langan.

2012 yil uchun jami yillik daromad haqidagi deklaratsiyani to'ldirish va ta'lim bo'yicha imtiyozni qo'llash uchun B.B.Abubakirov yashash joyidagi DSIGA barcha kerakli hujjatlarni: ish beruvchilar tomonidan berilgan to'langan daromadlar va ushlab qolingani JShDS summalari to'g'risidagi ma'lumotnomalar, Afg'oniston Respublikasida vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida xizmatni o'taganligi haqida mudofaa ishlari bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotnoma, o'zining pasporti va talaba qizining tug'ilganligi haqidagi guvohnoma nusxalari, pulli-kontrakt asosida ta'lim olish haqidagi shartnoma, ta'lim uchun haq to'langanligi va ijaradan olingan daromadlardan JShDS to'langanligi haqidagi kvitantsiyalarni taqdim etdi. Deklaratsiya bilan birga DSIGA universitetda va kollejda olingan daromadlar to'g'risida ma'lumotnomalar oylar bo'yicha hisoblab yozilgan daromadlar rasshifrovkasi bilan taqdim etiladi, ular asosida jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya to'ldiriladi.



**Soliq solinadigan bazani aniqlashda hisobga olinadigan daromadlar**  
**I guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
	Belgilangan stavkalar bo'yicha to'liq soliq solinadigan daromadlar	3810000	125054	112548.6	12505.4	x
9%-22%	Ayollarning o'ta zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda olgan daromadlari summasi (20% dan ko'p emas)		x	x	x	x
	Ish beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam summasi	180000	x	x	x	x
	Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki uning oila a'zolari vafoti munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summasi		x	x	x	x
	Yuridik shaxslardan olingan qimmatli sovg'alar qiymati	240000	x	x	x	x
	Mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi		x	x	x	x
<b>I guruh bo'yicha jami</b>		4230000	125054	112548.6	12505.4	

**II guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
9%	Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar		x	x	x	x
	Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan yuborilganda qishloq xo'jaligi ishlarini bajarganlik uchun olingan daromadlar (qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan to'ldiriladi).		x	x	x	x
<b>II guruh bo'yicha</b>						

**III guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
10 %	Dividend va foizlar	Jami	1500000	x	x	(2)
		Shu jumladan (1)		x	x	(2)
<b>III guruh bo'yicha jami</b>		<b>1500000</b>				

1) xususiy lashtirilgan korxonalarining aksiyalaridan olingan dividendlar;

2) yuridik shaxsning aksiyalarini sotib olishga yoki ustav kapitaliga yo'naltirilgan dividendlar.

**IV guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
0%	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydigan daromadlar	4479460	x	x	x	
<b>IV guruh bo'yicha jami</b>		4479460	x	x	x	

**V guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
	Davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summalar, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda aksiyalar nominal qiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlar	x	x	x	x	
	Yakka tartibda uy qurish, uni rekonstruksiya qilish va olish yoki ko'p kvartiradagi uyni rekonstruksiya qilish va olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ularga hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan daromadlar.	x	x	x	x	
	Yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ekti – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltirilgan daromadlari.	x	x	x	x	
	Mol-mulkni sug'urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lashga yo'naltirilgan daromadlar.	x	x	x	x	
<b>V guruh bo'yicha jami</b>		x	x	x	x	

	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
			budgetga ushlab qolingan summa	ShJBPHg a ushlab qolingan summa	
<b>I, II, III, IV va V guruhlar bo'yicha jami</b>	5730000	125054	112548.6	12505.4	

**VI guruh**

Stavka	Norezidentlarning doimiy muassasalar bilan bog'liq bo'lmagan daromadlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budgetga ushlab qolingan summa	ShJBPHg a ushlab qolingan summa	
<b>10%</b>	Dividend va foizlar					
<b>6%</b>	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 155-moddasi uchinchil qismining 9-bandiga muvofiq belgilanadigan xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar)					
<b>20%</b>	Intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazganlik uchun pul mukofoti, ijara bo'yicha daromadlar, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlar					
<b>VI guruh bo'yicha jami</b>						

Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

Bosh buxgalter \_\_\_\_\_  
(imzo)

M.O'.

STIR

1 2 1 3 1 4 1 5 1

varaq 0 5

Oylar buyicha hisoblangan daromadlar  
RASSHIFROVKASI

Jismoniy shaxsning STIR

0 1 0 2 0 3 0 4 0

Jismoniy shaxsning F.I.O. Abubakirov Botir Botirovich

Oylar	Soliq solinadigan shkaladagi stavkalar bo'yicha soliq solinadigan daromadlar - jami	shundan:							Eng kam stavka bo'yicha soliq solinadigan daromadlar	Dividendlar va foizlar		4 kar-rali imtiyoz*
		Ayollarning o'ta zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda olgan daromadlari summasi (20 % dan ko'p emas)	Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari	Boshqa vaziyatlarda ish beruvchi tomonidan beriladigan moddiy yordam summalari	Natura shaklida berilgan sovg'alar	Ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolariga berilgan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam	Mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi	Jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lov manbaida ushlab qolinmagan moddiy naf tarzidagi daromadlar		jami	Shu jum-ladan **	
Yanvar	317500											4
Fevral	317500											4
Mart	317500											4
April	317500											4
May	317500											4
Iyun	317500											4
Iyul	317500											4
Avgust	317500											4
Sentyabr	317500											4
Oktyabr	317500											4
Noyabr	317500			180000								4
Dekabr	317500				240000							4
Jami:	3810000			180000	240000							4

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

**Izoh:**

\*) Agar jismoniy shaxs eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lsa, har bir ishlangan oy uchun 4 raqami qo'yiladi.

\*\*) Yuridik shaxsdan olinib, uning aksiyalarini sotib olishga yoki ustav kapitaliga yo'naltirilgan dividendlar.

**Abubakirov B.B.ning asosiy bo'lmagan ish joyi – "Astra" XKdan olgan daromadlari to'g'risida ma'lumotlar**

Varaq

**To'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risida MA'LUMOTNOMA**

**Yuridik shaxs (ish beruvchi) to'g'risida ma'lumotlar**

STIR

Yuridik shaxsning to'liq nomi "Astra" XK

Yuridik shaxsning joylashgan yeri \_\_\_\_\_

Faoliyat yuritish joyi \_\_\_\_\_

Pochta manzili \_\_\_\_\_

Telefon: kod     raqam

**Jismoniy shaxs (daromad oluvchi) to'g'risida ma'lumotlar**

STIR	<input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="4"/> <input type="text" value="0"/>
ShJBPB	<input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="4"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="5"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="6"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="7"/>
Maqomi (1 - rezident / 0 - norezident)	<input type="text" value="1"/> Ish joyi (1 - asosiy / 0 - asosiy bo'lmagan) <input type="text" value="1"/>
Pasport ma'lumotlari: seriyasi	<input type="text" value="S"/> <input type="text" value="A"/> raqami <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/> <input type="text" value="0"/>
Berilgan sana	<input type="text" value="1"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="5"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> Termiz sh IIB _____
Doimiy yashash joyining manzili	viloyat _____ shahar <input type="text" value="Termiz"/> tuman _____ aholi punkti _____ ko'cha <input type="text" value="A.Navoiy"/> uy <input type="text" value="29"/> xonadon <input type="text" value="29"/>

Ushbu ma'lumotnoma   varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar    varaqda O'lchov birligi

Mazkur ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Bosh buxgalter (jismoniy shaxsning yangi ish (xizmat, o'qish) joyidagi) yoki davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar	Ushbu ma'lumotnoma
STIR	(kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)
F. I. Sh.	<input type="checkbox"/> qog'ozda <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishda
Imzo	<input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali <input type="checkbox"/> elektron pochta orqali
Bosh buxgalter	<input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> varaqda taqdim etildi
STIR	Taqdim etilgan sana <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/>
F. I. Sh.	(kk/oo/yy)
Imzo	F.I.Sh. _____
Sana	Imzo _____
<input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/> <input type="text" value=""/>	
(kk/oo/yy)	

M.O'.

**Soliq solinadigan bazani aniqlashda hisobga olinadigan daromadlar  
I guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisob-langan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-ning umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va O'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
<b>9%-22%</b>	Belgilangan stavkalar bo'yicha to'liq soliq solinadigan daromadlar	2560000	x	x	x	x
	Ayollarning o'ta zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda olgan daromatlari summasi (20% dan ko'p emas)		x	x	x	x
	Ish beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam summasi		x	x	x	x
	Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki uning oila a'zolari vafoti munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summasi		x	x	x	x
	Yuridik shaxslardan olingan qimmatli sovg'alar qiymati		x	x	x	x
	Mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi		x	x	x	x
<b>I guruh bo'yicha jami</b>		2560000	256000	230400	25600	

**II guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisob-langan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-ning umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
<b>13%</b>	Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar		x	x	x	x
	Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan yuborilganda qishloq xo'jaligi ishlarini bajarganlik uchun olingan daromadlar (qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan to'ldiriladi).		x	x	x	x
<b>II guruh bo'yicha</b>						

**III guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisob-langan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-ning umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
<b>10 %</b>	Dividend va foizlar	Jami	x	x	x	(2)
		Shu jumladan (1)	x	x	x	(2)
<b>III guruh bo'yicha jami</b>						

1) xususiylashtirilgan korxonalarining aksiyalaridan olingan dividendlar;

2) yuridik shaxsning aksiyalarini sotib olishga yoki ustav kapitaliga yo'naltirilgan dividendlar.

**IV guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPH ga ushlab qolingan summa	
0%	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydigan daromadlar		x	x	x	
<b>IV guruh bo'yicha jami</b>			x	x	x	

**V guruh**

Stav-ka	Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budjetga ushlab qolingan summa	ShJBPH ga ushlab qolingan summa	
	Davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiy lashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summolari, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda aksiyalar nominal qiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlar		x	x	x	
	Yakka tartibda uy qurish, uni rekonstruksiya qilish va olish yoki ko'p kvartiradagi uyni rekonstruksiya qilish va olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ularga hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan daromadlar.		x	x	x	
	Yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ekti – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltirgan daromatlari.		x	x	x	
	Mol-mulkni sug'urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lashga yo'naltirilgan daromadlar.		x	x	x	
<b>V guruh bo'yicha jami</b>			x	x	x	

	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
			budgetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
<b>I, II, III, IV va V guruhlar bo'yicha jami</b>	2560000	256000	230400	25600	

**VI guruh**

Stavka	Norezidentlarning doimiy muassasalar bilan bog'liq bo'lmagan daromadlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan		Boshqa ushlanma va o'tkazmalar
				budgetga ushlab qolingan summa	ShJBPHga ushlab qolingan summa	
<b>10%</b>	Dividend va foizlar		x	x	x	
<b>6%</b>	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 155-moddasi uchinchi qismining 9-bandiga muvofiq belgilanadigan xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar)		x	x	x	
<b>20%</b>	Intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazganlik uchun pul mukofoti, ijara bo'yicha daromadlar, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlar		x	x	x	
<b>VI guruh bo'yicha jami</b>			<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	

Rahbar

\_\_\_\_\_ (imzo)

Bosh buxgalter

\_\_\_\_\_ (imzo)

M.O'.

STIR

1 2 1 3 1 4 1 5 1

varaқ 0 5

Oylar buyicha hisoblangan daromadlar  
RASSHIFROVKASI

Jismoniy shaxsning STIR

0 1 0 2 0 3 0 4 0

Jismoniy shaxsning F.I.O. Abubakirov Botir Botirovich

Oylar	Soliq solinadigan shkaladagi stavkalar bo'yicha soliq solinadigan daromadlar - jami	shundan:							Eng kam stavka bo'yicha soliq solinadigan daromadlar	Dividendlar va foizlar		4 karali imtiyoz*
		Ayollarning o'ta zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda olgan daromadlari summasi (20 % dan ko'p emas)	Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari	Boshqa vaziyatlarda ish beruvchi tomonidan beriladigan moddiy yordam summalari	Natura shaklida ishchiga berilgan sovg'alar	Ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolariga berilgan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam	Mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi	Jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lov manbaida ushlab qolinmagan moddiy naf tarzidagi daromadlar		jami	Shu jumladan **	
Yanvar	180000											
Fevral	180000											
Mart	180000											
Aprel	180000											
May	180000											
Iyun	180000											
Iyul	180000											
Avgust	260000											
Sentyabr	260000											
Oktyabr	260000											
Noyabr	260000											
Dekabr	260000											
Jami:	2560000											

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

**Izoh:**

\*) Agar jismoniy shaxs eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lsa, har bir ishlangan oy uchun 4 raqami qo'yiladi.

\*\*) Yuridik shaxsdan olinib, uning aksiyalarini sotib olishga yoki ustav kapitaliga yo'naltirilgan dividendlar.

varaқ

**Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida  
DEKLARASIYA**

Deklaratsiya turi: dastlabki  Kalendar yil   
yakuniy

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchisi to'g'risida ma'lumotlar**

STIR	<input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="4"/> <input type="text" value="0"/>
ShJBPH	<input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="4"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="5"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="6"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="7"/>

Familiyasi *Abubakirov*  
Ismi *Botir*  
Sharifi *Botirovich*

Tug'ilgan yili

Jinsi erkak  ayol  (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)

Fuqaroligi \_\_\_\_\_

Pasport ma'lumotlari: seriyasi	<input type="text" value="S"/> <input type="text" value="A"/>	raqam	<input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/> <input type="text" value="0"/>
berilgan vaqti	<input type="text" value="1"/> <input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="5"/>		<input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="2"/> <u>Termiz shahar</u> IIB _____

Doimiy yashash joyining manzili:	viloyat <input type="text"/>	shahar <input type="text" value="Termiz"/>
	tuman <input type="text"/>	aholi punkti <input type="text"/>
	ko'cha <input type="text" value="A.Navoiy"/>	uy <input type="text" value="29"/> xonadon <input type="text" value="29"/>

Telefon: kod      raqami

Mazkur deklaratsiya	<input type="text"/> <input type="text"/> varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> varaqda	O'lchov birligi <input type="text" value="so'"/> <input type="text" value="m"/>
	yoki ularning nusxalari		

Deklaratsiyani topshirish muddati (kun/oy/yil)

\_\_\_\_\_  
*Termiz shahar DSI* ga taqdim etiladi  
(doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Mazkur deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Soliq to'lovchi	Mazkur deklaratsiya
STIR	(kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)
F. I. Sh.	<input checked="" type="checkbox"/> qog'ozda <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishda
Imzo	<input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta <input type="checkbox"/> elektron pochta orqali orqali
Sana	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> varaqda taqdim etildi.
	Ro'yxatga olindi № <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>
	Taqdim etish sanasi <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)
	F. I. Sh. _____
	Imzo _____

## I Bo'lim

## 1. Asosiy ish joyi bo'yicha mehnatga haq to'lash tarzida olingan daromadlar

T/r	Mehnat daftarchasi yuritiladigan asosiy ish joyi	Ishlagan davri	Hisoblangan daromad summasi	Ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi
1	"Top" MChJ	1-12 oylar 2011 y.	5730000	125054
2				
3				
4				
5				
	<b>Jami</b>		<b>5730000</b>	<b>125054</b>

Asosiy ish joyidan olingan To'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

## 2. Asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha mehnatga haq to'lash tarzida olingan daromadlar

T/r	Ish joyi	Ishlagan davri *	Hisoblangan daromad summasi	Ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi
1	"Astra" XK		2560000	256000
2				
3				
4				
5				
	<b>Jami</b>		<b>2560000</b>	<b>256000</b>

\* Asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda to'ldiriladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan To'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

## 3. Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi ko'rinishida olingan daromadlar

T/r	Mualliflik huquqi ob'ektlari	Mualliflik haqi sifatida olingan daromad summasi	Mualliflik haqi sifatida olingan daromatlarni olish bilan bog'liq xarajatlar	Ijodiy faoliyat bo'yicha soliqqa tortiladigan daromad summasi	Mualliflik haqi ko'rinishidagi daromaddan ushlangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi
1					
2					
3					
4					
5					
	<b>Jami</b>	-	-	-	-

Ijodiy faoliyatni amalga oshirganlik bilan bog'liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar daromaddan chegiriladi, biroq olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

– fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallarni olishga doir xarajatlar;

– faqat fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlari.

STIR 

0	1	0	2	0	3	0	4	0
---	---	---	---	---	---	---	---	---

varaq 

0	3
---	---

#### 4. Grant bo‘yicha olingan daromadlar

T/r	Grant bergan yuridik shaxsning nomi	Olingan grant summasi	Jismoniy shaxslarning hisoblangan daromad solig‘i summasi
1			
2			
3			
4			
5			
	<b>Jami</b>	-	-

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish organining xulosasi ilova qilinadi.

#### 5. Bir martalik operatsiyalar va mol-mulkn ijaraga berishdan olingan daromadlar

T/r	Daromad turlari	Daromad summasi	Ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1	YaTT Solihova M.N.	<i>1680000</i>	<i>168000</i>
2			
3			
4			
5			
	<b>Jami</b>	<i>1680000</i>	<i>168000</i>

Bir martalik operatsiyalar bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

#### 6. Dvidentlar, foizlar va boshqa mulkiy daromadlar

T/r	Daromad nomi	Daromad summasi	Ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1	Foizlar		
2	Dividendlar	<i>1500000</i>	
3	Jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkn realizatsiya qilishdan olingan daromadlar		
4	Sanoat mulki ob‘ektlariga, seleksiya yutujiga berilgan patent (litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi		
5	Royalti		
6	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘laganidan keyin quyidagilar ixtiyorida qoladigan foyda summasi:		
	xususiy korxonalar mulkdori		
	fermer xo‘jaligi boshliji		
	<b>Jami</b>	<i>1500000</i>	-

7. Boshqa soliqqa tortiladigan daromadlar (mazkur bo‘limning yuqorida ko‘rsatilganlaridan tashqari).

T/r	Daromad turlari	Daromad summasi	Soliqqa tortiladigan daromad summasi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1				
2				
3				
4				
5				
	<b>Jami</b>	-	-	-

8. Xorijiy davlatlarda yoki xorijiy davlatlardan olingan daromadlar

T/r	Daromad olingan mamlakatning nomi (daromad to‘lash manbasining nomi va manzili)	Daromad olingan sana	Olingan daromad summasi			Xorijiy davlatda to‘langan (ushlab qolgan) jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq summasi		
			valyuta da	valyuta kursi	so‘mda	valyutada	valyuta kursi	so‘mda
1								
2								
3								
4								
5								
	<b>Jami</b>	-	-	-	-	-	-	-

Ikki tomonlama soliq solishni bartaraf qilish maqsadida xorijiy davlatda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni to‘langanlikni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etaman.

STIR

0 1 0 2 0 3 0 4 0

varaq 0 4

9. Qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarganlik uchun olingan daromadlar \_\_\_\_\_so‘mni tashkil etib, ulardan \_\_\_\_\_so‘m jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘landi.

10. Olingan moddiy yordam summasi **180000** so‘mni tashkil qildi.

11. Olingan qimmatli sovg‘alar summasi **240000** so‘mni tashkil qildi.

## II Bo‘lim

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan daromadni aniqlash maqsadida ma‘lum qilamanki, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq jami yillik daromaddan quyidagi chegirmalarni qilish huquqiga egaman:

a) **2559460** so‘m summada eng kam oylik ish haqi miqdorining to‘rt baravari miqdorida. Eng kam oylik ish haqi miqdorining to‘rt baravari miqdorida chegirma uchun asos:

Hujjatning nomi			
	seriyasi	AAA	raqami
			11111
	O‘zRsi Mudofaa vazirligining Mudofaa ishlari bo‘limi		tomonidan berilgan.
	berilgan sanasi	1 5 1 2 1 9 9 2	

b) ko‘rsatilgan moddiy yordam bo‘yicha **180000** so‘m miqdorida;

- v) qimmatli sovg'alar bo'yicha **240000** so'm miqdorida;
- g) mualliflik haqi ko'rinishida va bir martalik operatsiyalardan daromad olish uchun amalga oshirilgan xarajatlar (I bo'limning 3 va 5-bandlari) \_\_\_\_\_ so'm miqdorida;
- d) davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan ko'shimcha aksiyalarning qiymati yoki o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda aksiyalar nominal kiymatining ko'payishi tarzida olingan daromadlar \_\_\_\_\_ so'm;
- e) mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan, eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasidagi ishdan bo'shatish nafaqasi bo'yicha \_\_\_\_\_ so'm.
- j) mol-mulkni sug'urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar \_\_\_\_\_ so'm;
- z) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ekti – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltirgan mablag'lari \_\_\_\_\_ so'm;
- i) yakka tartibda uy qurish, uni rekonstruktsiya qilish va olish yoki ko'p kvartiradagi uyni rekonstruktsiya qilish va olishga olingan ipoteka kreditlari va ularga hisoblangan foizlarni qoplashga yo'naltirilgan mablag'lar \_\_\_\_\_ so'm miqdorida.
- k) "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat bankining kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan mablag'lar \_\_\_\_\_ so'm;
- l) O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltirilgan mablag'lar \_\_\_\_\_ so'm;
- m) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya varaqlariga yo'naltirilgan mablag'lar \_\_\_\_\_ so'm miqdorida;
- n) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa daromadlar bo'yicha \_\_\_\_\_ so'm miqdorida.

13.\* Ilgari O'zbekiston Respublikasida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etilgan edi (oxirgi yil va soliq organi ko'rsatiladi)

\_\_\_\_\_ taqdim etilgan.

14.\* O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortish masalasini ko'rayotganda inobatga olinishi lozim bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar

\_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

### III Bo'lim

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olib, mening jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadim **3510540** so'mni tashkil qildi deb hisoblayman.

\* mazkur bandlar faqatgina chet el jismoniy shaxslari tomonidan to'ldiriladi

\* mazkur bandlar faqatgina chet el jismoniy shaxslari tomonidan to'ldiriladi

Shu bilan birga ma'lum qilamanki, men 20\_\_\_\_ yilda daromad solig'i solinadigan  
\_\_\_\_\_ so'm miqdorida daromadlar olishni mo'ljallayman.

(kun/oy/yil)

\_\_\_\_\_  
(solig to'lovchining imzosi)

**IV Bo'lim**  
**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi**  
**HISOB-KITOB**

T/r	Ko'rsatkichlar	Solig to'lovchi tomonidan to'ldiriladi			Solig organi tomonidan to'ldiriladi				
1.	Jami yillik daromadning umumiy summasi	9970000	X	X		X	X		
2.	Jami yillik daromaddan chegirmalarning umumiy summasi	6459460	X	X		X	X		
3.	Solig solinadigan baza	3510540	X	X		X	X		
4.	Hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i summasi	369762.9	Shundan			Shundan			
			budjetga hisoblangan summa	ShJBPHga hisoblangan summa		budjetga hisoblangan summa	ShJBPHga hisoblangan summa		
			351421.5	18305.4					
5.	Yil davomida to'langan (ushlangan) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	549054	Shundan			Shundan			
			budjetga to'langan summa	ShJBPHga to'langan summa		budjetga to'langan summa	ShJBPHga to'langan summa		
			510948.6	38105.4					
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi:		budjetga (dan)	ShJBPHga		budjetga (dan)	ShJBPHga (dan)		
			qo'shimcha to'lanadigan qaytariladigan	-		-	qo'shimcha to'lanadigan qaytariladigan		
			159527.1	19800					

-----qirqish chizig'i-----

<input type="text" value="O'zbekiston Respublikasi"/>	fuqarosi	<input type="text" value="Abubakirov Botir Botirovich"/>	ning
(davlat nomi)		(F.I.Sh)	
_____yil uchun _____ varaqdan iborat jami yillik deklaratsiyasi va ilovalari			
Termiz tuman ( <u>shahar</u> ) DSI tomonidan ro'yxatga olindi (qabul qilindi).			
№	<input type="text" value=""/>	<input type="text" value="1"/> <input type="text" value="2"/>	<input type="text" value="0"/> <input type="text" value="3"/>
		<input type="text" value="2"/> <input type="text" value="0"/> <input type="text" value="1"/> <input type="text" value="2"/>	(kun/oy/yil)
<input type="text" value=""/> (Mas'ul xodimning F.I.Sh, lavozimi va imzosi)		<input type="text" value=""/>	<input type="text" value=""/>
(kun/oy/yil)			
M.O'.			
_____ varaqdan iborat deklaratsiya va ilovalar aloqa bo'limi tomonidan jo'natish uchun qabul qilindi (pochta orqali jo'natishda rasmiylashtiriladi).			
Aloqa bo'limi belgisi _____		<input type="text" value=""/>	<input type="text" value=""/>
(kun/oy/yil)			

**MISOL.** Jismoniy shaxs asosiy ish joyidan tashqari xalqaro fond bozorida Rossiyada ro'yxatdan o'tkazilgan brokerlik kompaniyasi orqali jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha moliyaviy dastaklar (aktsiyalar, obligatsiyalar va hokazo) oldi-sotdisiga doir faoliyatni amalga oshiradi. Daromad qat'iy belgilab qo'yilmagan, chunki u amalga oshirgan operatsiyalarga bog'liq. Uni O'zbekistonda bank kartasi bo'yicha olishi kerak.

Soliq kodeksi (SK)ning 172-moddasiga ko'ra predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga kiradi. Ular jismoniy shaxsning asosiy ish joyidagi ish haqi va har qanday boshqa soliq solinadigan daromadlar bilan bir qatorda jismoniy shaxsning jami daromadiga kiradi. 2012 yilda jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagi stavkalarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solingan:

<b><i>Soliq solinadigan daromad</i></b>	<b><i>Soliq stavkasi</i></b>
EKIHning 5 baravarigacha	daromad summasining 9%i
EKIHning 5 baravaridan (+ 1 so'm) 10 baravarigacha	EKIHning 5 baravaridan soliq summasi + EKIHning 5 baravaridan oshadigan summaning 16%i
EKIHning 10 baravaridan (+ 1 so'm) va undan yuqori	EKIHning 10 baravaridan soliq + EKIHning 10 baravaridan oshadigan summaning 22%i

2013 yil uchun jismoniy shaxslarga soliq solishning quyidagi shkalasi belgilangan:

<b><i>Soliq solinadigan daromad</i></b>	<b><i>Soliq stavkasi</i></b>
EKIHning 5 baravarigacha	daromad summasining 8%i
EKIHning 5 baravaridan (+ 1 so'm) 10 baravarigacha	EKIHning 5 baravaridan soliq summasi + EKIHning 5 baravaridan oshadigan summaning 16%i
EKIHning 10 baravari (+ 1 so'm) va undan yuqori	EKIHning 10 baravaridan soliq + EKIHning 10 baravaridan oshadigan summaning 22%i

Agar jismoniy shaxs chet el valyutasida daromad olsa, soliq solish maqsadida daromadlar ular amalda olingan sanada O'zR MB tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi (SKning 170-moddasi).

SKning 189-moddasiga ko'ra O'zbekiston hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga kiradi, deklaratsiya blankalarini jismoniy shaxs soliq organlaridan bepul olishi mumkin. Jami daromad to'g'risidagi deklaratsiyani jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi soliq inspeksiyasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etishingiz shart. Deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan soliq esa o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'lanishi kerak (*SKning 193-moddasi*).

Shuni ham qayd etish lozimki, modomiki jismoniy shaxs O'zR hududida ish olib borayotgan ekan, Daromaddan va mulkdan olinadigan soliqlarning ikkiyoqlama qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida O'zR va RF Hukumatlari o'rtasida bitimning 15-»Yollanma ish» moddasi qoidalapiga ko'ra bu ish uchun olinadigan mukofotga faqat O'zbekistonda soliq solinishi mumkin. Ya'ni undan tashqarida, agar jismoniy shaxs Rossiyaning emas, balki O'zbekistonning rezidenti bo'lsa, ya'ni istalgan 12 oylik davr mobaynida RFda turmasa va mukofot haqini jismoniy shaxsga yollovchi - Rossiya rezidenti to'lasa, to'lov manbaida hech qanday soliq ushlanmalari amalga oshirilmasligi kerak.

Agar Rossiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlangan bo'lsa, O'zR SKning 196-moddasiga muvofiq jismoniy shaxs uning RFda to'langanligini tasdiqlaydigan hujjat asosida Rossiyada to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisobga kiritishga haqli. Misol uchun, RF soliq organining ma'lumotnomasi yoki to'lov manbai taqdim etgan, jismoniy shaxsga to'langan daromadlar va ulardan ushlangan soliqlar to'g'risidagi ma'lumotlar ana shunday hujjat bo'la oladi.

O'zbekistondan tashqarida olingan daromadlar deklaratsiyalanganda qonun hujjatlarida ular summasini tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etish nazarda tutilmagan.

**MISOL.** *Jismoniy shaxsga sovg'a qilingan avtomobil deklaratsiyalanadimi?*

- Agar avtomobil tekinga berilsa, uni berishga hujjatlarni rasmiylashtirishda odatda qoldiq qiymati ko'rsatiladi. Ayni u jismoniy shaxsning jami daromadiga

kiradi (*Soliq kodeksi (SK) 177-moddasining 2-bandi*). Agar jismoniy shaxs korxonaga xodimi bo'lsa, EKIHNing 6 baravari doirasidagi daromad summasiga (soliq davri mobaynida) JShDS solinmaydi (*SK 179-moddasining 14-bandi*) va daromad solig'i faqat EKIHNing 6 baravaridan oshadigan summaga hisoblab yoziladi.

Agar avtomobil pulga berilsa, JShDS solinadigan jami daromadga, fikrimcha, u jismoniy shaxsga sotiladigan narx bilan uning qoldiq qiymati o'rtasidagi salbiy farq kiradi (*SK 177-moddasining 3-bandi*). Boshqacha aytganda, pulga berilganda JShDS bo'yicha soliq solinadigan baza faqat avtomobil qoldiq qiymatdan past narxda sotilgan holda yuzaga keladi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar bo'yicha JShDSni ushlab qolish va budjetga to'lash uchun javobgarlik (*SKning 177-moddasi*) soliq agenti zimmasida bo'ladi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, mazkur pul mablag'lari haqiqatda soliq to'lovchiga yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi (*SKning 185-moddasi*).

Jismoniy shaxsning manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati moddiy naf tarzidagi daromadlarga kiradi (*SKning 177-moddasi*) va ularga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi. Uni hisoblab chiqarish, ushlab va to'lash majburiyati yuridik shaxsga yuklanadi.

Moddiy naf tarzidagi daromadni u bilan mehnat munosabatlarida bo'lmagan jismoniy shaxsga to'laydigan korxonaga JShDSni faqat jismoniy shaxsning yozma arizasiga asosan ushlab qolmaslikka haqlidir. Yuridik shaxs soliq davri tugaganidan keyin 30 yanvardan kechiktirmay soliq organlariga asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etishi shart. Ushbu holda jismoniy shaxs moddiy naf tarzidagi daromad bo'yicha JShDSni doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1

aprelidan kechiktirmay taqdim etishi kerak bo'lgan deklaratsiya asosida to'lashi shart (*SKning 184, 187, 189, 192-moddalari*).

SKning 222-moddasiga asosan yuridik shaxs avtomobil tekinga berilganda jismoniy shaxsga hisobvaraqq-faktura taqdim etishi shart.

### **2.3. Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi orqali soliqqa tortishni takomillashtirish**

Soliqlar to'g'risidagi iqtisodiy qarashlar tarixan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga berilgan ta'riflarni tahlil qilish avvalambor, ularning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini asoslash, solikdarning iqtisodiyotdagi rolini va soliqqa tortish printsiplarini belgilash, shuningdek, soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining tutgan o'rnini aniqlash uchun zarurdir.

Iqtisodiy adabiyotda olimlarning aksariyati soliqlarni ikkita muhim xususiyati, ya'ni majburiylik va ekvivalent huquqni bermasligi bilan ta'riflaydi. O.Abduraxmanov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagicha ta'rif bergan: «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to'lovlaridir»<sup>11</sup>.

A.Adizov esa, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumlashtirilgan holda, «jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar- davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdir», deb ta'rif bergan. Mazkur ta'rifning muhim jihati shundaki, uning muallifi ba'zi xorijiy iqtisodchilar singari soliqlar borasida aholi mas'ulligini ta'kidlash bilan cheklanmagan, balki davlat ham o'z zimmasidagi majburiyatni adolatli tarzda bajarishi lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur majburiyat soliqlar vositasida yig'ilgan

---

<sup>11</sup>Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. / Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2005. B. -11.

mablag'larni xalq manfaatidan kelib chiqqan holda tejimli sarflash hamda bu borada soliq to'lovchilarga batafsil ma'lumotlar berib borish lozimligini uqtiradi.

Keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan davlat budjetiga tushadigan majburiy to'lovlar ekanligi e'tirof etilgan. Iqtisodiy qarashlardagi asosiy farq qiluvchi jihat shundan iboratki, ba'zi mualliflar soliqlarning muntazamligini ta'kidlashsa, boshqalari ularning ekvivalentsiz to'lov ekanligini qayd etishgan. Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning daromad solig'iga ta'rif berishda soliq solinadigan daromad tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Jismoniy shaxs daromadga ega bo'lib, soliq solinadigan daromadga ega bo'lmasa, ya'ni jismoniy shaxsning daromadi imtiyozga ega soliqqa tortilmaydigan daromadni tashkil etsa, undan daromad solig'i undirish xususida ran bo'lishi ham mumkin emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, bu - qonun asosida o'rnatilgan miqdorda va muddatda davlat budjetiga jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlaridan undiriladigan majburiy to'lovdir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat budjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat daromad solig'i orqali milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi. Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarning o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida jismoniy shaxslar daromadining ish haqidani tashqari dividend, nafaqa, stipendiya, ijara haqi, tomorqa xo'jaligidan oladigan pul tushumi va boshqa shu kabi daromadlari salmog'i oshib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, fikrimizcha, avvalo, aholi pul daromadlari sarflanish tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

## 2004-2011 yillarda aholi pul daromadlari sarflanish tarkibining o'zgarishi, (%da)

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Aholi pul daromadlari jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari	76,9	73,1	74,3	73,5	74,7	71,8	70,7	69,8
Majburiy to'lovlar va badallar	7,7	7,7	7,7	6,7	6,5	7,4	7,1	6,9
Jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar, valyuta xarid qilish va boshqalar	14,1	17,3	15,7	18,0	17,1	18,1	20,2	21,0
Aholi pul qoldig'ining o'sishi	1,3	2,0	2,3	1,8	1,7	2,7	2,0	2,3

1-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, aholi pul daromadlarining aksariyat qismi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar hissasiga to'g'ri keladi va ushbu ulush 2004-2011 yillarda pasayish tendentsiyasiga ega, ya'ni 2004 yilda jami daromaddagi tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari ulushi 76,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 69,8 foizga teng bo'lgan. Tahlil etilayotgan davrda ushbu ulushning pasayishini ijobiy holat deb baholash mumkin. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, pul daromadlari birinchi navbatda, tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari uchun sarflanadi va ushbu sarf-xarajatlar salmog'ining kamayishi esa, aholi real daromadlari o'sishi bilan sodir bo'ladi. Aholi pul daromadida tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari uchun sarflar ulushining kamayishi hisobiga 2004-2011 yillarda jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar, valyuta xarid qilishning ulushi 6,9 foizga (21,0 - 14,1%), aholi pul qoldig'ining 0,7 foizli punktga o'sishi kuzatilgan. 2004-2011 yillardagi jismoniy shaxslar daromadlari sarflanishining tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiq etilgan yillarda aholining 7-8 foiz xarajatlari soliqlar, majburiy to'lovlar va badallar hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu ulushda salmoqli hissaga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning mol- mulk va yer solig'i stavkalari mikdori oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, yuridik shaxslardan foyda solig'i undirishda majburiy xarakterdagi barcha to'lovlar, jumladan, yer va mol-mulk solig'i miqdorlari chegirib tashlanadi, jismoniy shaxslardan daromad solig'i hisoblanish jarayonida ushbu xarajatlar inobatga olinmaydi. Shundan kelib chiqib, jismoniy shaxslar daromaddarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda ular tomonidan to'lanadigan yer va mol-mulk soliqlari summasini daromad solig'i solinadigan bazadan chegirib tashlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiyotda resurslarning ishtirokiga qarab, bozor daromadlari mazmunan turlicha bo'ladi va ularning asosiy qismini tadbirkorlik daromadi tashkil etadi. Tadbirkorlik faoliyati foyda olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va bu foyda tadbirkorlik daromadi, deb yuritiladi. Ta'kidlash joizki, bozor munosabatlari chuqurlashib borgan sari aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi ortib boradi. Shu boisdan, jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida ishlab topilgan daromadlari dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida ishlab topilgan daromadlari o'zgarishi <sup>12</sup>, (mlrd so'm)

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
O'rindoshlik asosida topilgan mablag'lar	85342	86304	91760	100557	112362	102302	126894	135698
Tijorat do'koniga mol topshirishdan	19337	14433	13923	14285	12202	11267	21356	26579
Mulkiy daromadlar (dividendlar va ijara bo'yicha)	16715	34421	31054	38080	38104	64622	81348	115698
Boshqa daromadlar	8476	17526	13399	29308	20724	9098	11657	13145
Jami daromadlar	129870	152684	150136	182230	183392	187289	241255	291120

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida topgan daromaddari tarkibida eng salmoqli ulush - o'rindoshlik asosida topilgan mablag'lar zimmasiga to'g'ri keladi, ya'ni 2011 yilda mazkur

<sup>12</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari .

daromadlar jami daromaddarning 46,6 foizini tashkil etgan. Undan keyingi o'rinlarni mulkiy daromaddar va boshqa daromaddar egallaydi. Mazkur daromad manbalarining 2004-2011 yillardagi o'zgarishlari taxlili shuni tasdiqlaydiki, boshqa daromaddar bo'yicha o'sish 1,4 martani, mulkiy daromadlar bo'yicha o'sish 4,9 martani, o'rindoshlik asosida topilgan daromaddar bo'yicha o'sish 1,6 martani tashkil etgani holda, aholining tijorat do'koniga mol topshirishdan olingan daromaddari esa, ushbu davrda 1,2 martaga o'sgan. Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, mamlakat aholisining aksariyat xarajatlarida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish tashkil etadi. Xizmatlar uchun haq to'lash esa, 2004-2011 yillarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda ushbu xarajatlarning asosiy qismi tibbiyot, ta'lim va kommunal xizmatlar to'lovlaridan iborat. Agar ushbu holatga soliq solish nuqtai-nazaridan qaraydigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda soliq solinmaydigan minimumning aksariyat qismi ushbu xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. Shuningdek, jismoniy shaxslardaromadini soliqqa tortishda deyarli barcha mamlakatlarda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu miqdor ijtimoiy va tibbiyot xarajatlari bir qismini qoplashga sarf qilinadi. Respublikamizda jismoniy shaxslarning bu xildagi xarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan chegirilmaydi. Kelgusida bunday chegirmalar joriy etilishi aholi daromaddari soliqqa tortilishini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur. Bunda birinchi navbatdagi vazifa - soliq solinmaydigan minimum miqdorining maqbul darajasini belgilashdagi yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Mazkur jarayonda eng murakkab masala - jismoniy shaxsning olayotgan daromaddari bilan iste'moli orasidagi tafovutni aholining ijtimoiy tabaqalanishi nuqtai- nazaridan odilona baholashdir. Soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni belgilashda mamlakatimizda ko'pgina ijtimoiy xarakterdagi xizmatlar (tibbiyot, ta'lim)ning bepulligi, kommunal xizmat haqlari bozor narxlaridan ancha pastligi hamda aholi daromadlari tarkibidagi soliq solinmaydigan shaxsiy yordamchi xo'jalik daromadlari va natural iste'moli darajasi hisobga olinishi muhimdir.

Shunday qilib, respublikamizda jismoniy shaxslarga nisbatan soliq solinadigan daromadlar aniqlanishida soliqqa tortilmaydigan daromadning qat'iy miqdorini belgilash va ish haqlari oshishiga mos ravishda ushbu miqdorni oshirib borish zarur. Dastlabki davrlarda, soliqqa tortilmaydigan daromadlar bilan iste'mol savatchasi orasidagi tafovut bartaraf etilgunga qadar, soliqqa tortilmaydigan daromadning oshishi ish haqlari oshirilishi darajasidan yuqori bo'lishi lozim. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromaddar bilan iste'mol savatchasi orasidagi tafovutni anikdashda jismoniy shaxslarning ish haqidan tashqari oladigan (tomorqa, mulkiy va boshqa) daromadlari va iste'mol xarajatlari tarkibini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda deklaratsiya taqdim etgan jismoniy shaxslar soni va deklaratsiya bo'yicha qo'shimcha hisoblangan daromad solig'i summasi yildan-yilga o'sib bormoqda (3-jadval).

Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishning 2004-2011 yillardagi taxliliga ko'ra (3-jadval), 2004 yilda jami bo'lib 82788 fuqaro, 2011 yilda esa 155234 fuqaro asosiy ish joyidan tashqarida olgan daromaddari haqida deklaratsiyalar taqdim etganlar. Deklaratsiyaga kiritilgan daromaddarida farq aniqlangan fuqarolar soni 2004 yilda 24434 fuqaroni, 2011 yilda esa 65427 fuqaroni tashkil etgan. Shunisi e'tiborliki, taxdil etilayotgan davr mobaynida deklaratsiya bo'yicha daromaddarida farq aniqlangan fuqarolar sonining o'sganligi fuqarolarimiz o'rtasida jami yillik daromaddarni umumdeklaratsiyalash tizimi amaliyotida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar talaygina ekanligini tasdiqlaydi.

2004-2011 yillarda deklaratsiyalash natijasida 8893,3 mln so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. Mazkur davrda deklaratsiya yakuniga ko'ra, qo'shimcha hisoblangan daromad hisobidan 2004 yilda 3464,6 mln so'm, 2011 yilda esa, 12357,9 mln so'm qo'shimcha mablag' undirilgan. 2011 yilda deklaratsiyani kechikib topshirgan 7458 ta fuqaro bo'lib, ularga 60,1 mln so'mlik ma'muriy va 19,3 mln so'mlik moliyaviy jarimalar qo'llanilgan.

**O‘zbekiston Respublikasida deklaratsiya topshirgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida  
ma’lumotlar<sup>13</sup>**

t/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar							
		2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
1.	Deklaratsiya taqdim etgan fuqarolar soni	82788	83240	89000	94017	95859	100646	131367	155234
2.	Deklaratsiya bo‘yicha daromadida farq aniqlangan	24434	24876	28003	30076	55063	59034	62134	65427
3.	Jami qo‘shimcha hisoblangan soliq, (mln so‘m)	3464,6	4049,1	5103,3	5681,7	5563,7	7621,0	10750,0	14183,3
4.	Qo‘shimcha hisoblangan soliqning undirilishi, (mln so‘m)	3464,6	4049,1	4793,4	5681,7	5487,6	7472,9	9921,0	12357,9
5.	Qo‘shimcha hisoblangan soliqning undirilmagan summasi, (mln)	-	-	309,9	-	76,1	148,1	829,0	2324,0
6.	Deklaratsiyani kechiktirib topshirgan fuqarolar soni,	11220	10179	10150	11056	6726	5367	6321	7458
	-hisoblangan ma’muriy jarimalar, (mln so‘m)	111,6	1193,4	13,6	28,3	28,1	42,7	53,3	64,7
	- undirilgan ma’muriy jarimalar, (mln so‘m)	111,6	1193,4	12,5	27,8	26,9	41,6	51,9	60,1
	- undirilgan moliyaviy jarimalar, (mln so‘m)	94,1	6,9	2,8	24,2	0,8	0,7	21,1	19,3

Jismoniy shaxslar jami daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimi bo‘yicha qonunchilik talablarini buzishning keng tarqalgan shakli - deklaratsiyani belgilangan muddatdan kechikib taqdim etish hisoblanadi. Mazkur holatda

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari .

amaldagi tartibga ko‘ra, bunday deklarantlarga nisbatan jarimalarni qo‘llash ko‘zda tutilgan. Mazkur natijalar, soliq organlarini jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimidagi to‘lov intizomini mustahkamlashga oid tadbirlarini kuchaytirish lozimligini belgilaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, daromadlarni deklaratsiyalash uchun belgilangan me‘yorlar mavjud, masalan, Yaponiyada yillik daromadi 20,0 mln iendan yuqori daromadga ega jismoniy shaxslar ikki va undan ortiq joyda daromad olmagan taqdirda ham daromadlarini deklaratsiyalashlari shart. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Yaponiyada jismoniy shaxslar daromadlaridan deklaratsiya asosida daromad solig‘ini hisoblashda soddalashtirilgan usuldan foydalaniladi. Ushbu soddalashtirilgan usulni respublikamizda qo‘llash taklifi ishlab chiqildi, bunga muvofiq 2011 yil uchun respublikamizda jismoniy shaxslar yillik daromadlarini deklaratsiyalashda daromad solig‘ini hisoblashning soddalashtirilgan usuli quyidagi ko‘rinishga ega (4-jadval):

4-jadval

**Jismoniy shaxslar yillik daromadlarini deklaratsiyalashda daromad solig‘ini hisoblashning soddalashtirilgan usuli, (2011 yil)**

Shkala	Soliq solinadigan daromad	Stavka	Soliq bo‘yicha chegirma miqdori
I	3199 325 so‘m	10 %	3199932,5 so‘m
II	3199 325 so‘mdan 6 398 650 so‘mgacha	16 %	3199932,5 so‘m+ 511892 so‘m
III	6 398 650 so‘m va undan yuqori	22%	831 824,5 so‘m + 6 398 650 so‘mdan ortiq summaning 22 foizi

Yillik daromadlarni deklaratsiyalashda daromad solig‘ini hisoblashning ishlab chiqilgan soddalashtirilgan usulini istalgan davrga tatbiq etish mumkin. Mazkur usulning amaliyotda qo‘llanilishi jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash bilan shug‘ullanuvchi soliq idoralari xodimlarining mehnatini yengillashtirish bilan birga, har qanday soliq to‘lovchiga o‘z daromadlaridan murakkab hisob-kitoblarsiz daromad solig‘ini hisoblash imkoniyatini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tanlangan mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, jumladan, soliq sohasidagi islohotlar iqtisodiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning umumiy iqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish va deklaratsiyalash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari aholining turmush darajasini oshirishga hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishini rag'batlantirishga xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat budjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Daromad solig'i tufayli, yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lgan toifalari foydasiga va umuman, jamiyat manfaatlari yo'lida qayta taqsimlanadi, pirovard natijada esa, daromatlardagi tengsizlik ma'lum darajada qisqarishiga erishiladi.

3. Mamlakatimizda daromadlarni legallashtirish va xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarini bosqichma-bosqich umumdeklaratsiyalash tizimiga o'tkazish zarur degan xulosaga kelindi.

4. Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadlariga keng qamrovli va adolatli soliq solish tizimi qaror toptirilishida daromadlarni deklaratsiyalash usulida soliqqa tortishning rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribasini milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizni inobatga olgan holda respublikamizda qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslash muxdm ahamiyat kasb etadi.

5. Soliq qonunchiligiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashning amaldagi usuli jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash va daromad solig'ini hisoblab chiqarishda chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o'z navbatida, mazkur soliqning budjetga o'z vaqtida to'liq

undirilmasligi va moliyaviy jarimalar qo'llanilishiga olib kelmoqda.

6. Tadqiqot natijasida respublikamizda 2001 yildan soliq solinmaydigan minimumning bekor qilinishi oqibatida kam daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i yuki oshgan degan xulosaga kelindi. Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini deklaratsiyalashda soliq solinmaydigan minimumlarning joriy etilishi maqsadga muvofiq.

7. Tahlillar ko'rsatishicha, respublikamizda daromadlarini deklaratsiyalovchi jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy va ma'muriy jarimalar soni oshib bormoqda. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi bo'yicha qonunchilik talablarini buzishning keng tarqalgan shakli asosan deklaratsiyani kechikib taqdim etishidir. Mazkur natijalar, soliq organlarining jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimidagi to'lov intizomini mustahkamlash va daromadlarni deklaratsiyalash bo'yicha tushuntirish ishlari, targ'ibot- tashviqot tadbirlarini kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

8. Tadqiqot doirasida olib borilgan ekonometrik tahlil asosida respublikamizda aholining real daromadlari muttasil oshishi hisobiga jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha davlat budjetiga kelib tushadigan tushumlar qiyosiy narxlarda o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelindi.

Bitiruv malakaviy ishida jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi **ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab** chiqildi:

1. Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning daromad solig'iga ta'rif berishda soliq solinadigan daromad tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Jismoniy shaxslar daromadga ega bo'lib, soliq solinadigan daromadga ega bo'lmasa, ya'ni jismoniy shaxsning daromadi imtiyozga ega soliqqa tortilmaydigan daromadni tashkil etsa, undan daromad solig'i undirish xususida ran bo'lishi ham mumkin emas. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, bu - qonun asosida o'rnatilgan miqdorda va muddatda davlat budjetiga jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlaridan undiriladigan majburiy to'lovdir.

2. Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimiga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda jismoniy shaxslar daromadlarini mavjud deklaratsiyalash asosida soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ikkinchi bosqichda deklaratsiya asosida soliqqa tortiladigan daromadlar ko'lamini kengaytirish, bunda yuqori daromadga ega hamda yirik iste'mol tovarlari sotib olgan jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqqa tortishni nazarda tutish, uchinchi bosqichda soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan barcha jismoniy shaxslarni yillik daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqqa tortishni joriy etish.

3. Respublikamizda jismoniy shaxslarga nisbatan soliq solinadigan daromadni aniqlashda soliqqa tortilmaydigan daromadning qat'iy miqdorini belgilash va ish haqlari oshishiga mos ravishda ushbu miqdorni oshirib borish zarur. Dastlabki davrlarda, soliqqa tortilmaydigan daromad bilan iste'mol savatchasi orasidagi tafovut bartaraf etilgunga qadar, soliqqa tortilmaydigan daromadning oshishi ish haqlari oshirilishi darajasidan yuqori bo'lishi lozim. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromadlar bilan iste'mol savatchasi orasidagi tafovutni aniqlashda jismoniy shaxslarning ish haqidan tashqari oladigan daromadlarini va iste'mol xarajati tarkibini inobatga olish maqsadga muvofiq.

4. Taraqqiy etgan mamlakatlar ilg'or tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashning soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqildi. Ushbu soddalashtirilgan tartibda daromad solig'ining hisoblanishi jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqqa tortishning sodda va qulay mexanizmi bo'lib, hisob-kitoblardagi murakkablikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

5. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini umumdeklaratsiyalash yuzasidan davlat tadbirlari samaradorligini oshirishda milliy mentalitetning hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Bunda jismoniy shaxslarga meros qolgan boylik va mulkni ishlatishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalashda chegirmalarning qo'llanishi maqsadga muvofiq. Mazkur tadbir orqali aholi daromadlarini legallashtirish, ularning tashabbuskorona faolligini

o'zgarishga erishiladi.

6. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqqa tortishda aholining ijtimoiy tabaqalanishini e'tiborga olgan holda soliq chegirmalarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda ayniqsa farzandlar sonining ko'pligi e'tiborga olinishi lozim, oiladagi balog'atga yetmagan farzandlar sonidan kelib chiqib, har bir farzandga nisbatan soliq chegirmalari qo'llanishi zarur.

7. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer va mol-mulk soliqlari summasini daromad solig'i solinadigan bazadan chegirib tashlanishi maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2008 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni // Xalq so'zi, 29 avgust 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni, 2000 yil 14 dekabr // Soliqlar va bojxona xabarlar. 2001 y., 2-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrdagi «Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3127-sonli Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalar rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1245-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1887-sonli qarori.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-325-b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O'zbekiston, 1998.-682-b.

13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 352-b.

14. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz // Xalq so'zi, 2001 y., 17 fevral.

15. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish - taraqqiyot garovi // Xalq so'zi, 2001 y., 18 iyul.

16. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik -Toshkent: O'zbekiston, 2005 y.

17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. - 56-b.

18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O'zbekiston, 2011. - 440-b.

19. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqaroli jamiyati barpo etish - ustivor maqsadimiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010 yil 28 yanvar.

20. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010 yil 30 yanvar.

21. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2011 yil 22 yanvar.

22. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy

yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi. 2012 yil 20 yanvar.

23. Bosh maqsadimiz - keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi. 2013 yil 19 yanvar.

24. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - Toshkent: Sharq. 2009. -400-b.

25. Jo‘raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Norma. 2009. -183-b.

26. Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O‘quv qo‘llanmasi. - Toshkent: TDIU nashr., 2003.

27. Vahobov A., Sirojiddinova Z. Gosudarstvenniy budjet. - Tashkent: Iqtisod-moliya, 2007.- 454 -s.

28. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. - Toshkent: 1996. -18-b.

29. Zavalishina I. A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. - Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005. -544-b.

30. Toshmurodov T. Soliqlar / Izohli lug‘at. - Toshkent: Mehnat,2003.-184-b.

31. Temur tuzuklari. - Toshkent: Cho‘lpon, 1991. - 98-b.

32. Yaxyoev K.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. - 247-b.

33. Abdullaev Yo.A., Yaxyoev Q.A. Soliq:100 savol va javob. T.: «Mehnat», 1997 y.

34. Beknozov N. “Iqtisodiyot nazariyasi”.T. «Mehnat», 2005.

35. Vahobov A., Srojiddinova Z. Gosudarstvennyy budjet. Uchebник. - T.: Iktisod-moliya. 2007.- 452 s

36. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2005.

37. Jo‘reav A, Toshmatov Sh. Soliqlar va soliqqa torish.. O‘quv qo‘llanma.. T.: “Norma”, 2009
38. Zavalishina I.A. Nalogi: teoriya i praktika. T.: «Mir ekonomiki i prava», 2004.
39. Yo‘ldoshev, Y.Tursunov. «Moliya huquqi». Toshkent. «Mehnat». 1999. - 246 b.
40. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb muammolari T. Akademiya 2002.
41. Malikov T.S. Soliq yukining og‘irligini keskin kamaytirish kerakmi? // Soliq akademiyasi. - Toshkent, 2006. - 32 b.
42. Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. T.: Fan va texnologiya. 2008-203bet
43. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2003 y.
44. «Bozor, pul va kredit» jurnali.
45. «Soliq to‘lovchining jurnali».
46. «Soliq solish va buxgalteriya hisobi» jurnali.
47. «Soliqlar va bojxona xabarlari» moliyaviy-iqtisodiy gazetasi.
48. Internet saytlari:
49. <http://www.soliq.uz>
50. <http://www.mf.uz>
51. <http://www.gov.uz>
52. <http://www.lex.uz>
53. <http://www.norma.uz>
54. <http://www.ziyonet.uz>